

85-32

**O'ZBEK RAQS SAN'ATI
TARIXI VA RAQS
SAHNALASHTIRISH
SIRLARI**

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач

85.32

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

Dilfuza Sayfullayeva
Zubira Kazakbayeva

O'ZBEK RAQS SAN'ATI TARIXI VA RAQS SAHNALASHTIRISH SIRLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv-g'o'llama

30503

✓
Сканер

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI G'IRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

TOSHKENT KIMYO-TEKNOLOGIYA INSTITUTI
QO'SHIMCHI G'IRCHIQ AKADEMIK LITSEYI
AXBOROT RESURS MARKAZI FILIAL
BO'YXAT VA OLINGAN
20__y

Toshkent "Voriz-Nashriyoti" MChJ

2006

4000



Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

Mo'minov A.N.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
san'at arbobi, Toshkent Davlat
Milliy rags va xoreografiya
oliy maktabining dotsenti.

Sayitova E.

Toshkent Davlat Milliy rags
va xoreografiya oliy maktabining
kafedra mudiri.

“O'zbek rags san'ati tarixi va rags sahnalashtirish sirilari” o'quv qo'llanmasi Toshkent Davlat milliy rags va xoreografiya oliy maktabi talabalariga, respublikamizdagi barcha Madaniyat kollejlari xalq ijodiyoti bo'limlari o'quvchilariga mo'ljallangan.

Ushbu qo'llanma rags sahnalashtirish usullarini nazariy jihatdan o'rgatuvchi ma'ruza ko'rinishida yozilgan. Bo'lajak baletmeysterlar bilishi lozim bo'lgan o'zbek rags san'ati tarixi, liboslar tarixini ham o'z ichiga oladi.

ISBN 978-9943-304-01-7

© “Voriz-Nashriyoti” MChJ – 2006

KIRISH

Mustaqil O'zbekistonimiz dunyo hamjamiyatida o'z o'rni va muvqeini mustahkamlab borayotgan bir paytda xalqimizning ulkan hunyodkorlik, buyuk kelajak sari fidoiylik bilan intilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillikka erishganimiz munosabati bilan keyingi vaqtda ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish hamda kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish uchun Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oldiga ulkan vazifalar qo'yilmoqda.

Istiqbolimizga, Vatanimizga, xalqimizga, yorqin istiqbolimizga e'tiqod hislarini o'stirish, ijtimoiy hayotimizda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarga e'tibor beraylik. Yoshlarimizni yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalash ta'lim sohasida ish olib borayotgan o'quvchilar zimmasidagi yuksak mas'uliyatdir. Keyingi yillarda mutaxassis kadrlarni tayyorlash ishiga ayniqsa katta e'tibor berilmoqda. Yoshlar bizning kelajagimiz, ularning barkamol inson bo'lib yetishishlari uchun hech narsani ayamasligimiz, ularga kasbiy ta'lim berish bilan birga, ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashimiz lozim. Milliy qadriyatlarimiz, boy tariximizni chuqur o'rganishlari, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-siyosiy islohotlarni to'la anglabgina qolmasdan, ushbu jarayonlarda faol ishtirok etishlarini ta'minlovchi ta'lim tizimini yaratishimiz davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilanganligini Prezidentimiz takror va takror ta'kidlab kelmogdalar.

Prezidentimiz g'oyalari asosida va bevosita ishtirokida tayyorlangan «Ta'lim haqidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinganligiga to'g'ri yil to'ldi. Bu vazifani amalga oshirish o'zbek milliy rags san'atimizni o'rganish va bu san'atni yoshlarga o'rgatib, uni boyitib kelayotgan mutaxassislariga ham yuksak mas'uliyat yuklaydi.

Baletmeysterlarni va raqqosalarni yanada jo'shqin ishlashlariga, ko'p ter to'kishlariga undaydigan yana bir farmoni qayd etish lozim. Bu Prezidentimiz I. A. Karimovning 1997-yil 18-yanvardagi «O'zbekiston milliy ragsi va xoreografiya san'atini rivojlantirish» haqidagi farmonidir.

O'zbek xalqi juda ham boy rags san'ati merosiga ega. Bu san'at turi yozma ravishda o'z davrining mohir ustalari tomonidan qayd etilmaganligi bois unutilib ketishi mumkin edi. Lekin ular hozirda rags asoschilari tomonidan qayta rivojlantira borilmoqda. Bu davr ichida yuzlab mohir raqqosalar va baletmeysterlar, pedagoglar yetilishib chiqdilar va ular rags o'rgatish usullarini yaratdilar. Binobarin, bu ishda kattagina tajriba ham to'plandi, deyish mumkin.

Ammo shu vaqtgacha o'zbek xalq raqslarini sahnalashtirish uslublarini o'rgatish bo'yicha o'zbek tilida baletmeysterlar tomonidan yaratilgan, ijrochilik bo'yicha yig'ilgan boy tajribani aks ettirgan qo'llanmalar yo'q. Mustaqil ish boshlayotgan yosh rags to'garagi rahbarlari yetarli darajada o'rgatish tajribasiga ega bo'lmaganliklari bois ish faoliyati davomida qator qiyinchiliklarga uchraydilar.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma havaskorlik rags to'garagi rahbarlari, Madaniyat va san'at kollejlardagi «Milliy rags» kafedra o'qituvchilariga mo'ljallangan bo'lib, u rags san'ati tarixi, liboslar tarixi, uning asoschilari, maqom, yalla, lapar, folklor raqslar, rags sahnalashtirish usul va uslublari, rags kompozitsion rejasining tuzilishi, sahna rejasi, musiqa va raqslarning o'zaro bog'liqliklarini o'rganishda qo'llaniladi.

Havaskor rags to'garagi rahbari o'zining ish faoliyati davomida yetishib kelayotgan yosh raqqosalarni o'z raqslari orqali tarbiyalaydi. Havaskorlik rags jamoasi rahbari faqatgina rags to'garagi rahbari emas, balki u pedagog, tarbiyachi va tashkilotchi hamdir. Rags san'ati tarixini, liboslar tarixini bilmay turib, baletmeyster haqiqiy baletmeyster bo'lolmaydi. Rags sahnalashtirish fani jahon xalq raqslari, mumtoz rags, o'zbek rags va folklor raqslari kabi boshqa mutaxassis fanlarni ham o'z ichiga oladi.

Ushbu qo'llanma milliy urf-odatlarini tiklovchi folklor-etnografik ansambl rahbarlari, havaskorlik rags jamoalarini tashkil qilish ishi uchun amaliy ijod bilan shug'ullanayotgan baletmeysterlar hamda talabalar uchun foydali bo'ladi, degan umiddamiz.

Qo'llanma haqida bildirilgan fikr-mulohazalarni mualliflar mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

“O'ZBEK RAQS SAN'ATI TARIXI VA RAQS SAHNALASHTRISH SIRLARI” FANINING MAZMUNI VA MOHIYATI

O'zbekiston madaniyati taraqqiyotida rags san'atining o'rni bo'lakcha. O'zbek rags madaniyatida asosan uch yo'nalish mavjud: **amaviy rags, xalq sahnaviy ragsi va balet san'ati.**

Rags ustalari, baletmeysterlar, ansamblarning rahbarlari rags uslublarining o'ziga xosligini, estetik xususiyatlarini to'la saqlashga harakat qilib kelishgan. “Rags sahnalashtirish” fanining asosiy maqsadi ham ana shunda. Bu fan talabalarga raqsni sahnalashtirishning usul va uslublarini, musiqa tanlash va tahlil qilish, rags tasviridagi oddiylik va murakkablikni anglashni o'rgatadi, raqs zamonaviy sahna talablari asosida sahnalashtirilgan xalq va professional raqslarni sahnalashtirishda ko'mak beradi.

Bu fan nazariy va amaliy kabi ikki bo'limdan iborat bo'lib, ular bir-birlari bilan bog'liqdir. Olgan nazariy bilimlarni raqsni sahnalashtirishda amaliyotga tabiiq etadilar. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar baletmeysterlik faoliyatlari bilan shug'ullanadilar.

Rags sahnalashtirish fani o'qitilayotganda imkon qadar texnik vositalardan foydalanish kerak. Masalan, rags dastalarining konsertlari, kino, video, videofilm va har xil video kasseta, musiqa ohanglari yozilgan tasmlarni eshitib, muhokama qilish kerak. Raqsqa musiqa tanlashda ham bu vositalar yordam beradi. Gurullar bilan birgalikda balet spektakllariga, xoreografiya san'atiga bag'ishlangan kechalarda faol ishtirok etish kerak.

Fanning asosiy maqsadi — bo'lajak rags jamoalari rahbarlarini, ya'ni baletmeysterning mahoratini oshirish, baletmeysterini chuqur bilimli, yuksak madaniyati, kasbiy mahoratli, o'z zamonasining ilg'or kishisi sifatida namoyon qilishga yordam berish.

Fanning asosiy vazifasi mutaxassislarni rags san'ati tarixini, uning asoschilari ijodi, milliy liboslar, rags sahnalashtirishning usul va uslublarini o'rgatishdir. Rags san'atidagi eng ilg'or ish uslublaridan xabardor bo'lish va o'z ish faoliyatida undan unumli foydalanish, xoreografik atamalar, sahna yoki alohida raqslarning matnini yaratish uslublaridan, dramaturgiya qonunlaridan xabardor qilgan.

Umuman olganda, talabalarni har tomonlama yetuk mutaxassis, o'z ishinig mohir ustasi qilib tayyorlash bu fanning asosiy maqsadidir.

Bu fan 3 qismga bo'lib o'rganiladi:

1. Milliy raqs san'ati tarixi.
2. Mustaqillik davrida milliy raqs.
3. Raqs sahnalashtirish usul va uslublari.

MILLIY RAQS SAN'ATI TARIXI

Raqs – inson paydo bo'lgan ilk davrlardayoq tug'ilgan. Dastlab raqs orqali insoniyatning mehnat jarayonlari, hayvonlarning harakatlari ijro etib yurilgan. Raqs gavdaning boshlang'ich holatidan ritmik gavda harakatlari turkumi bilan yakuniy holatga o'tish orqali vujudga keladi. Haqiqiy san'at mehnatdan toliqqan insonga ma'naviy-ruhiy kuch, tetiklik, xushchaqchilik, hayotga, yashashga bo'lgan intilishlariga qanot bag'ishlagan. O'zbek raqs san'ati ming yillar mobaynida insonning jamiyadagi hayotini va umuman, ijtimoiy hayotni aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgu bo'lib xizmat qilgan.

Qadimiy raqslar turmushdagi va mehnatdagi biror harakatga, chaqonlik va chidamlilikka o'rgatuvchi jismoniy mashg'ulot bo'lgan. Raqsning bu xususiyati qadimiy xalqlarda uzoq vaqt davomida saqlanib kelgan. Mahalliy xalqlarda, barcha boshqa xalqlardagi kabi, raqs ovchilar pantomimalari va g'olibning tantanasini ifodalovchi o'yinlarda shakllana borgan. Keyinroq esa ko'tarinki ruhiyatini kishilar sirti kuchlar bilan bog'liq, deb tushunib, ularga tenglashish maqsadida quvvatni sun'iy ravishda o'stirishga harakat qila boshlaganlar.

XX asrning 20-yillaridayoq ayollar "Lippa o'yini", "Chilton bazm o'yini" deb nomlangan o'yinlarni o'ynashgan va ularni asosan, Margilon, Qo'qon, Buxoro va Xorazm professional raqqosalari ijro etganlar.

Farg'ona professional raqs turkumini boshlab beruvchi murakkab ritmik-plastik syuta o'zbek xoreografiyasi tarixida alohida o'rin tutadi. Ko'p asrlik umr kechirgan raqs san'ati bir paytlar madhiyalar va motam qo'shiqlari, romanlar va gissalar to'plami bo'lganligini bildiradi.

O'zbek xoreografiyasining eng katta vakili Yusufjon qiziq va boshqa ustalarining qayd etishicha, «Katta o'yin» Iskandar davridayoq

(miloddan avvalgi III asr) mavjud bo'lib, u paytlarda u 280 usuldan tashkil topgan. O'zbek xoreografik merosining bilimdoni bo'lgan shoir Xislat «Katta o'yin»ni hech narsasini o'zgartirib bo'lmaydigan, hech narsani qo'shib yoki olib bo'lmaydigan yagona asar sifatida ta'riflaydi. XIX asrning ikkinchi yarmida raqs san'ati ustalarining bergan ma'lumotlariga qaraganda, "Katta o'yin"ni tanikli raqqosalar ijro etishgan.

Zamonaviy an'anaviy raqslar guruhini tasvirlashda shu hol qayd etilidiki, sof professional xoreografiya yagona raqs madaniyatiga xos bo'lib, o'ziga xos raqs uslublariga ega bo'lgan uch guruhga – Farg'onacha, Xorazmcha, Buxorocho raqslarga bo'linadi.

Farg'onacha raqslar yengil, aylanna qo'l harakatlari bilan ajralib turadi. Tana harakatlarning tabiiyligi, tananing erkin turishi, tana yuqori qismining yengil harakatlanishi, oyoq uchlarida yengil yugurishlari Farg'ona vodiysining boy tabiatiga mos keladi. Farg'onacha «katta» raqslar qahramonona harakatlarga boy bo'lib, dramatik ehtirolarni ifodaladi. Xorazmliklar, shimolliklarning mag'rur raqslariga xos bo'lgan keskinlik ularda yo'q.

Xorazmliklarning tarixiy xususiyatlari raqsni oshkora hissiyotchanlik, mardlik bilan boyitishga yordam bergan. Ma'lumki, asrimiz boshida xon qo'shini qoshida raqqosalar bo'lgan, ular jang boshlanishdan oldin jangchilarning ruhini ko'targanlar. Uning nomi Xorazmdagi eng ommaviy raqs "Lazgi"dir. Bu raqs jo'shqinlik, olovli ehtiros, mag'rur xalqning harakatlarini aniq ifodalagan.

Buxorocho raqsda tananing nozik egilishlari, raqs harakatlarning murakkab tuzilishi shundan dalolat beradiki, bu raqs xalq o'yinlaridan oziqlanib, katta ijodkorlar davrasida rivojlanib kelgan. Ularda jonli tabiat va inson tuyg'ulari aniq ifoda etilgan. Raqslar ritmik jihatdan tez, shiddatli va mag'rur.

XALQ RAQSLARI

Turmush shodliklari va tashvishlariga bag'ishlangan qator xalq qo'shiq va raqslari ham shu kungacha saqlanib kelgan.

O'zbek xalq raqslari hayotdagi turli voqealiklarni harakatlar orqali aks ettirib, ifodalovchi san'at turlaridan biri bo'lib qoldi. Bundan tashqari raqs insonning ichki dunyosini aks ettiruvchi vositadir. Xalq raqslari qo'yidagilarga bo'linadi:

1. Farg'ona, Xorazm, Buxoro mahalliy ijodiy maktablari.

2. «Katta va kichik» o'yinlari yaratuvchi asosiy ijro usuli.

Shu tariqa o'zbek xalq lirik raqsida uchta janr bor: mardonavor-qahramonlik janri, lirik-dramatik janr va yumoristik-komik janr.

Xalq orasida barcha raqs ijrochiligi «Toybozi» – oyog o'yini va «Qo'lbozi» – qo'l o'yini kabi ikki turga bo'lingan. Bu raqslar Marg'ilon, Farg'ona, Buxoro, qisman Qo'qon madaniy markazlarining shahar raqslarida ko'zga tashlanmaydi. Qo'qon ayollari va erkaklar raqslari ancha jo'shqin, ochiq, har bir raqs yakunida qo'l va yelka harakatlari ancha keskin bo'ladi. Andijoncha ayollar raqsi Qo'qon ayollari raqsiga o'xshashdir.

«Andijon polkasi» deb nom olgan andijoncha yig'itlar o'yini butun Farg'ona vodiysi bo'ylab tarqalgan. Farg'ona xoreografiyasi ustalari bo'lmish Yusuf qiziq va usta Olim Komilov «Andijon samosi» yig'itlar o'yini qadimdan shu viloyatda o'zbeklar va tojiklar bilan hamjihatlikda yashab kelgan uyg'ur raqslari jo'shqinligi bilan sug'orilgan deb hisoblashadi. XIX asrning 80-yillaridan boshlab Andijon shahri hayotiga kirib kelgan rus yig'itlari bu o'yinni «polka» deb atay boshlagan ekanlar. Yusufjon qiziq va boshqa ustalar bu fikrni ma'qullashgan, ishchilarning bayramlarida bu jo'shqin o'yinni ruslar o'zbeklar bilan birgalikda o'ynagan ekanlar.

«Andijon polkasi» – chapani, jo'shqin, kuchli, ifodali, turmushdan zavq oluvchi ishchilar raqsidir.

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida ayollar va erkaklar raqs tushayotganda qo'llarini yengil must qilib, bosh barmoqlarini tepaga chiqarib o'ynaydilar. Umumman olganda, Toshkent raqslari Farg'ona maktabiga kiradi.

Farg'ona raqsi o'ziga xos uslubda «Tanavor»ning ko'p sonli ashlula variantlaridan birortasini aytayotgan ayol qo'shig'i jo'rligida ijro etilgan. Farg'ona «Tanavor» qo'shiq-raqs juda noyob janr. Har bir qishloqda har bir raqqosa o'zining ro'yobga chiqmagan orzularini qo'shiq qilib aytib, raqsiga tushgan. Ayol o'zining qalbi to'ridagi sirini raqsda ifodalagan.

Buxorocha raqslarning ishlov berilgan mohirona, murakkab shakllari xalq lirik raqslarida o'ziga xos ravishda aks etgan: qadamlar o'sha-o'sha bo'lsa ham, qo'llar murakkab harakatlardan iborat bo'lgan.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tog' va vodiylaridagi qishloq ayollarining raqslari shaklan buxorocha va tojikcha raqslarga o'xshab ketadi. Biroq ijro usullari boshqacha.

Xorazmda katta-yu kichik, yosh-u qari «Lazgi» raqsiga o'ynaydi. Xalq «Lazgisi» quvonch raqs bo'lib, ular afsonaviy «Lazgi», qadimiy «Lazgi», orombaxsh «Lazgi» deb nomlangan. Qadimiy «Lazgi» to'g'risida shunday afsona bor. Inson tanasi dastlab loydan yasali, alohida-alohida bo'lgan ekan. Jonga «tanaga kir», deb buyurdilar, jon tanaga kirib, birdan qo'riqib, qaytib chiqadi. «Kir tanaga» deb unga qayta buyuribdilar. U «qo'rqaman» debdi. Shunda ilohiyotdan bir kuy taraliydi. Bu kuyga maftun bo'lgan jon tanaga qanday kirganini bilmay qolibdi. Oldin barmoqlariga, panjalariga so'ngira bilaklariga, yelkalariga jon kirib, inson tirilibdi. Bu ilohiydan kelgan «Lazgi» kuyi ekan.

XIX asrdan boshlab Buxoro yahudiylari deb atalgan eron tilida so'zlashuvchi yahudiylar o'zlarining qadimiy yahudiy dinlarini saqlab qolganlar, madaniyatlarini esa tojik xalqiga yuqtirganlar. Buxoroda maqomlar professional ijrochiligi yahudiylar muhitida «oliaviy», ya'ni bobo va buvylardan nabiralarga o'tib boruvchi san'at turi sanaladi. Buxoro amiri saroyida so'nggi ikki asr davomida ayol raqqosalar odatda, Buxoro yahudiylardan bo'lgan. Xalq ichida paydo bo'lgan ayrim harakatlar va butun kompozitsiya professional raqqosalar tomonidan saygallanib, yana xalq ichiga qaytgan.

O'zbek raqs merosini o'zlaridan oldingi avlodlardan qabul qilib, uni o'nlab yillar va asrlar mobaynida ko'z qorachig'idek saqlab kelgan ko'pgina ijrochilarning nomlari ma'lum. Raqs san'ati meoschilari Yusufjon qiziq Shakarjonov, Ahmadjon Umurzodov, usta Olim Komilov, aka Buxor, Qimmatxon Sultonova, Sharofat To'rayeva, Tamaraxonim kabi XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab o'tgan o'nlab tanig'li raqs ustalarining nomlari mashhur. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi raqs san'ati haqida shu davrda yashab ijod etgan birinchi raqs tadqiqotchisi I.G. Baxta Farg'ona va Toshkent qadimgi raqslari va raqs ustalari to'g'risida ma'lumot yig'gan. U XX asr boshlari va 20-yillarda Farg'ona vodiysi, Xorazm va Buxoroda faoliyat boshlagan tanig'li raqqosalar bilan uchrashib, mulotoqida bo'lgan.

O'ZBEK RAQS LIBOSLARI TARIXI

Milliy tarixni kiyimlar haqidagi bilimsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Xalqimizning kiyim-kechaklari ularning yashash tarzi va udumlariga hamohang va mos holda asosan uch xil bo'lgan: ish sharoitida, uyda, mehmondorchilik va marosimlarda kiyiladigan kiyimlar. Milliy liboslar ustki ko'ylak, ishton, chopon, do'ppi (takya) va etikdan iborat bo'lgan.

Umumiy holatda turli viloyatlarda o'zbek milliy kiyimlari xususiyatlariga ko'ra o'xshash bo'lsa-da, ammo etnik jihatidan ko'rinishi, shakli, rangida tafovutlar bo'lgan. Chunonchi, Buxoroda, Qashqadaryo, Surxondaryo va Zarafshon vodiylarida uzun va keng, uzun yengli, paxta yoki yarim ipak va rangli matodan tikilgan chopon, yaltiroq olachadan biroz tor qilib tikilgan katta kamar yo'lli Xorazm choponi shular jumlasidandir.

Ayollarning chopon shaklida tikilgan o'ziga xos ustki kiyimi **mursak** deb atalgan. Ular Buxoro, Xorazm va Qashqadaryoda yengli tirsakkacha kalta va kichikligi bilan, Samarqand va Toshkentda uzun, ensiz, bliakkacha bo'lgan yengli bilan farqlangan.

Xorazm ayollari ipakdan tikilgan doirasimon shakldagi gulli takya (do'ppi) ga ipdan yoki chiroyli qush patidan (ukpar) popuk taqanlar, gir atrofiga kumush tangalar osganlar. Takya ustidan ro'mol yopinganlar. Erkaklar boshlariga cho'girma kiyganlar. Qishda qo'y terisidan tikilgan sang-sangi po'stin kiyganlar. Bu Xorazmning qahraton sovuq'idan himoyalovchi asosiy issiq kiyim hisoblangan.

Salla o'rash ham qadimiy urf-odatlar sirasidan bo'lib, undan bayram va marosimlarda ko'proq foydalanilgan. Ayol va erkak salla, lachaklari o'zaro hamda etnik farqlarga ham ega bo'lgan.

Qizlar va ayollar soch o'rinarida ham farq bo'lgan. Qizlar va kelinlar farzandli bo'lguncha sochlarini qirq o'rim qilib, ayollar esa ikki o'rim qilib o'rish odat bo'lgan.

Buxoro viloyatidan tashqari hamma viloyat ayollari tik yoqali, old tomoni belgacha kesik va shu joyi yoqa qalinligidagi tasma bilan to'silgan ko'ylak kiyganlar. Buxorocho ko'ylakning oldi uchburchak bo'lib, oddiy ayollar uni keng jimgimalar bilan bezatganlar.

Farg'ona vodiysi erkaklari oppoq yoki sarg'ishroq bo'zdan tikilgan, oldi ochiq ko'ylak (yaxtak) kiyganlar. Farg'onada yaxtak

ustidan belbog' bog'lansa, Xorazm, Buxoro va Janubiy hududlarda belga uzun qo'shoq bog'laganlar. Farg'ona vodiysi, Toshkent va uning atrofidagi qishloqlarda sovuq ranglar: moviy, to'q moviy, ko'k ranglardagi kiyimlarni unchalik kiyishmagan. Bu ranglar motam libosi hisoblangan.

Buxoroning sap-sariq, to'q sariq, qizil, to'q qizil va och yashil rangli ip matolari o'ziga xos va chiroyli bo'lgan. Yirik gulli matolar ustidan o'sha rangda nozik chiziqlar tortilgan.

Xorazmda erkaklarning yaxtagi ham, ayollarning ko'ylagi ham qizil-binafsha yoki yashil-sariq rangli, mayda yo'lli matolardan tikilgan. O'zbeklar va tojiklar yashagan Koson tumanida ikkala millat ham o'zicha kiyingan. Samarqand va uning atroflaridagi qishloqlarda ayollar yirik gulli chit ko'ylaklar kiyganlar. Boshlariga o'ziga xos uzun yopinchiq – sarandoz tashlab yurganlar.

Urgut ayollari kiygan sarandoz qip-qizil va naqshlari juda jimgimali bo'lgan. Urgut begasami kengligi 3-4 smli sariq va qizil himda ingichka qora va oq yo'llardan iborat. Poyabzal xillari ham juda ko'p bo'lib, ular erkaklar, ayollar va bolalar uchun asosan teridan tikilgan.

ERKAKLAR KIYIMI

Mahalliy millat erkaklarining kiyimlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning mintaqalarga qarab farqlanishi va xususiyatlari esa matosining rangi va kiyilishi bilan belgilanadi. Erkaklar milliy kiyimi tarkibiga ko'ra: **ichki** (ichdan kiyiladigan) va **ustki kiyimlarga** bo'linadi.

Qadim zamonlarda erkaklar ko'ylagi, asosan, bir xil tusdagi oq matodan tikilib, bu mato kosisib dastigohida to'qilgan. Ko'ylaklar bichimiga ko'ra uzun bo'lib, eni buzilmagan bir bo'lak matoni yarmidan bir-biriga ulab, uzunasiga tikilgan, yon qismi esa etagiga qarab kengiyib borgan. Erkaklar ko'ylagi uzun, tizzadan pastga, keyinroq esa belning yarmisigacha tushadigan qilib tikilgan. Yogasi esa ikki xil andazaga binoan bichilgan. Farg'ona vodiysida uzun, tik yirmoch – qiyiq joyi uzunroq mato bichilib, burchakma-burchak qilib, ikki qiyiq kesilgan mayda uchlar keng qilib tikilgan. Boshqa xil bichimdagi ko'ylaklarda yirmoch yotiq, u yelkadan bu yelkagacha olingan. Farg'ona vodiysi va Toshkentda bu kabi ko'ylaklarni

«mullavachcha ko'ylaklar» deb atashgan. Ba'zan yoqaning chetlariga jiyak ham tikilgan. Nafagat Toshkent va Farg'ona vodiysi o'zbeklari, balki Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Xorazm o'zbeklari ham ko'proq, yoqasi yotiq ko'ylaklarni kiyishgan.

Tik yoqali ko'ylaklar ham juda keng rasm bo'lgan. Yoqaning ko'krak qismiga tushadigan yirmochiga ikki buklab taxlangan planka tikilgan. Bunday ko'ylaklarni bolalar va o'rta yoshdagi erkaklar kiyishgan. Zarafshon havzasida yashovchi qipchoqlar tik yoqali ko'ylaklarni «qozoqi ko'ylak» deb atashgan. Fabrikada to'qilgan matolar qo'llanila boshlangach, kiyimlarning shakllari ham o'zgara borgan. Xaridorqir gazmollar fakturasi jihatidan kengroq, qalirroq bo'lgani sababli nafagat to'g'ri, balki qiyalana bichiq bo'yicha ham ko'ylak bichish, burma qilish va boshqa shakllar berish mumkin edi.

Bu esa yangi-yangi bichim — andazalarning vujudga kelishiga imkon yaratdi. An'anaviy yengsiz va uzun ko'ylaklar bilan bir qatorda, yelka qismi qiya qilib, yarim aylana yoy shaklida, yeng qismi torroq bichilgan va burib tikilgan, burma yenglar ulangan, tik yoqali ko'ylaklarni kiyish rasm bo'la boshadi, bularning ko'krak qismidagi yirmochini kalagina planka yopib turadi.

Farg'ona va Toshkent viloyatlarida oldi ochiq yaxtak ko'ylaklar kiyish odat tusini olgandi. Ular chit, bo'z, ipak, ip gazlama matolardan tikilib, yoshlar ham, qariyalar ham birdek yoqtirishgan. Yengil, kiyishga qulay yaxtakning etagi tizzagacha va tizzadan ham pastroqqa tushib turar, yoqasi uzunasiga ilmoq bilan yonna-yon qilib qavilar (hozirgi paytda bu joy tikuv mashinasida zich qilib bahyalanadi) ko'krak qismiga bir dona tugmacha yoki qo'lbola ilgak, ko'pincha o'z matosidan ingichka bog'ich o'tkazib qo'yilardi. Erkaklar ishtoniga kelganda, yuqori qismi keng, pochalar torroq tikilib, to'piqgacha tushib turadi, yuqori qismiga ishtonbog' o'tkazish uchun milkiga gir aylana balya-chok qilingan. Ishonlar aksariyat hollarda ip gazlamadan tikilgan, ya'ni yaxlit mato bo'lagining o'rta qismiga ikki yon tarafidan pochalar solinardi, mazkur qismining tor yoki keng tikilishiga va ishton og'ining tor-kengligiga qarab, katta yoki kichik qadam tashlab yurish mumkin bo'lgan. Yilning sovuq fasllarida ishton ustidan astari yoxud astarsiz shim kiyilgan, u, asosan, ip va jun gazlamadan tikilgan. Chavandozlar, ovchilar namat, kigizdan, jun, mo'ynadan, oshlangan teridan tikiladigan cho'lvor kiyishgan. Darvoq,

bunday ust-bosh O'rta Osiyolilarning qadimiy kiyimlari sirasiga kiradi.

Odatda ko'ylak ustidan albatta oldi ochiq chopon kiyib yuritilgan. Bular ikki xil bichilgan. Biri yaxlit mato bo'lagidan tikilib, oldi, orqasi va yelka qismi choksiz bo'lgan. Yeng o'tqaziladigan o'rni qiyilmagan, yenglari uzunasiga — to'g'ri yoki yeng tomon uchlari toraytirib tikilgan. Choponning qo'lliq osti qismiga deyarli hamma vaqt, qulfak hishtak, yonlariga pona shaklidagi mato ulangan. Bular yotiq tarafi bilan choponning gavda qismiga tikib qo'yilgan. Boshqa bir bichiqqa binonan tikilgan choponlarda gavda qismi biri-biriga ulanib, choklab qo'yilgan bir xil enlikdagi ikki mato bo'lagidan iborat bo'lib, mazkur bo'laklar o'rtaasi choklanib, choponning old va ort qismini tashkil etadi. Yenglarning yuqorisi matoning bir parchasini pona shaklida o'yib, kesib olish bilan yuzaga keladi. Etak qismi esa, ikki tomondan qirqib, chetlari bahyalab qo'yiladi. Bu bemaol odim o'tib yurish imkonini bergan. Choponning yoga va etaklari barlarining chetlari va yenglarining uchlariga ipdan to'qilgan torroq jiyak yoki uzun qilib kesilgan mato bo'lagini hoshiya qilib, ko'krak qismiga esa, ikkita bog'ich tikib qo'yishgan. Choponlar yuqqa astarli yoki astarsiz qilib tikilgan, qish faslida kiyiladiganlariga paxta solib qavilgan.

O'ziga to'q erkaklar qish faslida paxtali qavima chakmon, kumush, mo'yali pochapo'stin kiyishni odat qilganlar. Andazasiga ko'ra, chakmon to'n yoki chopondan farq qilmaydi, ammo butlardan kengroq qilib tikiladi. Yoqasi tor, orti tik, oldi torroq bo'lib, quyi qismida tor-kengligi bilimmaydi, chetlariga esa gir aylanasiga jiyak tikiladi. Chakmonning o'zi esa echki yoki tuya junidan qo'lda to'qilgan matodan tikilgan.

Erkaklarning kiyim-kechaklari tarkibida belbog' alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Mahalliy gazmollardan tikilgan qo'shoqlar, to'g'ri turtburchak shaklidagi ro'mollar, belbog', belqars, kashalar bilan bezatilgan chorsilar, qiyiqchalar juda rasm bo'lgan. Badavlat kashalar, amaldorlar kamar taqishgan. Bunday kamarlar baxmal va zorlardan keng qilib tayyorlanib, kumush shokildalar, naqshlar bilan bezatilgan. Ularga zalvorli to'qalar o'rnatilib, to'qalarning usi silanib, qora bo'yogda bo'yab qo'yilgan. Mahalliy zaqarlar qo'llidan chiqqan naqshinkor taginishonlar qadaliq, ziynatlangan. Xorazmda qish faslida uski kiyimlar ustidan uzunligi o'n bir metr gacha

yetadigan, ip gazlama yoki ipakdan ishlangan o'rama belbog' bog'lab yurishgan.

Do'ppilar muayyan mintaqalarda, kishilarning yoshiga qarab turlicha bo'lgan. Masalan, erkaklar, ayollar, bolalar, jumladan, o'g'il bolalar, qiz bolalar, emizikli go'daklar, chollar va kampirlar o'zlariga xos bosh kiyim kiyishgan. Do'ppilar uchi cho'qqi, konus shaklida, yarim qubba, tagi yassi, dumaloq, turtburchak – chorsi shaklida tikilib, ipak, zarin ip, kumush iplar bilan kashta tikib bezatilgan. Bu do'ppilar qora satindan, baxmaldan tikilgan. Ularning shakli dastlab cho'qqisimon, gardishida keng tasmasi bo'lib, ustidan salla o'rashga moslangan edi. Keyingi davrlarda do'ppilarning shakli o'zgarib, yuqori qismi dumaloq yoki to'rtburchak shaklini oldi, gardishidagi kizagi torroq qilinadigan bo'ldi.

Farg'ona vodiysida va Toshkentda chust do'ppilarini kiyish rasm bo'ldi, ularning qora tusdagi matosi uzra od ip bilan qalampir yoki bodom shakli tikilib, kizagi qator mehrobsimon naqshlar bilan bezatilgan. Boshdan oxirigacha iroqi chok bilan tikiladigan rango-rang do'ppilarni ham ko'p uchratish mumkin. Qashqadaryo viloyatida ham xuddi shunday iroqi chok – balya bilan ziynatlangan giland do'ppilar juda ko'p rasm bo'lganini ko'ramiz. Surxondaryo viloyatida piltado'zi do'ppilar, Toshkentda esa gul (kashta) tikilgan do'ppilar bilan bir qatorda, baxmal do'ppilar ham kiyishgan.

Do'ppilarning shabpo'sh deb ataladigan turi ham bor. U tikuv mashinasida yoxud go'lda babyalab tikilgan ip gazlama matodan tayyorlanadi. Shabpo'shni qishda telpak ostidan yoki tungi bosh kiyimini sifatida kiyishgan. Aslzoda, ruhoniy va boshqa shu kabi tabaqalarga mansub ayrim kishilar, keksa chollar kuloh kiyib yurishgan. Kuloh uch yoki to'rt burchakli mato bo'laklaridan tikilib, uzun, konus shaklida tayyorlangan.

Yoz faslida Farg'ona vodiysi qishloq aholisi oq namatdan tikilgan qirg'izcha qalpog, qishda esa ichi mo'ynali qilib tikilgan qozoqcha tumoq kiyishni odat qilishgan. Xorazm vohasi o'zbeklari cho'girma kiyganlar. U qo'yning uzun, hiplidoq junli terisidan tikilib, cheiti yumaloq va tepasi yassi shakldadir. Cho'girmaning mo'ynasi ostida dumaloq, namat qalpogchaga o'xshash astari ham bo'ladi. Qish faslida do'ppi ustidan dumaloq mo'ynali telpak kiyilgan.

Buxoro vohasida va unga tutash tumamlarda erkaklar ichi koyak, konus shaklidagi mo'ynali telpak kiyishni rasm qilishgan, uning

yuqori qismi qorako'l mo'ynasidan ishlanib, quyi qismiga esa mo'ynasi sirib qo'yilgan. Farg'ona vodiysi va Toshkent shahrida odatta mato (ko'proq qora baxmal)ning uch-to'rt bo'lakidan tikilgan telpak ham kiyilib, u tulki yoki suvsar mo'ynasi, ba'zan esa qorako'l terisidan tayyorlangan. Albatta bunday noyob mo'ynali telpaklarni hoy-badavlat kishilargina kiyishgan, ko'pchilik esa salla o'ragan yoki do'ppi ustidan qiyiqni gir aylantirib o'rab yurishgan.

Sallalar ip gazlama, ip aralash jun matolar, doka, ba'zan qimmatbaho matodan tayyorlangan. Aholining har bir ijtimoiy tabaqasi sallani o'ziga xos o'rashi bilan ajralib turgan. Buxoroda sallani maxsus uslubda boshga o'rab qo'yadigan ma'lum kishilar bo'lgan. Kishilar ish bilan mashg'ul bo'lgan yoki uydalik paytlarida sallani yechib qo'yib, boshlariga qiyiqcha yoki bir bo'lak matoni bog'lab olishgan.

AYOLLAR KIYIMI

Ayollarning milliy kiyim-kechaklaridagi an'anaviylik ko'proq keksa avlodga mansub ayollar orasida, shuningdek, ayrim yosh ayollar liboslarida ham saqlanib qolmoqda. Marosim kiyimlari ham o'zgarishsiz saqlangan.

Mazkur kiyimlarning tarkibi, bichim-andazalari turli yoshdagi kishilar guruhlari uchun turlicha bo'lib, keyingi o'n yilliklar mobaynida bu sohada turfa o'zgarishlarni kuzatish mumkin.

Ayollarning an'anaviy kiyim-boshlari – ko'ylak, lozin, chopon, murtuk, to'n, peshmat, kamzul, nimcha, paranj-chaqvon (shaharlik ayollarning majburiy uski kiyimi hisoblanib, ko'chaga chiqqan paytlarida ularni boshga yopinib yurganlar) lardan, mayda, xilma-xil to'mollar, rang-barang do'ppilardan iborat bo'lgan. Poyabzallar esa maxsi, boshmoq kabi charmdan qilingan hamda rezinadan quyilgan kullishlardan tashkil topgan. Ayollar kiyim-kechagining nafisligi, ularning xilma-xil va go'zal bo'lishiga mohir o'zbek zargarlari tomonidan tayyorlangan zeb-ziynatlar yanada ko'rk qo'shgan.

O'tmishda xotin-qizlarning asosiy an'anaviy ichki kiyimi uzun ko'ylak hamda lozindan iborat bo'lgan. Ko'ylakning etagi to'piloqacha tushib, etak qismi kengayib borgan.

Qizlar kiyadigan ko'ylakning yoqasi yotiq bo'lib, chetlari boshqa rangdagi mato bo'lakidan mag'iz bilan tikib bezatilgan.

Yoganing ikki tomonidan bog'ich o'rnatilib, bog'lab yoki tugma bilan qadab qo'yilgan. Turmush ko'rgan ayollar libosining yogasi ko'krak o'rtasida taxminan 25 santimetr uzunlikda qiyiq olingan yirmoch shaklida bo'lib, ikki taraf bog'ichlar bilan bog'lab yoki bir tomoniga tugma yoxud o'rtasidan to'g'nag'ich qadab yuritilgan. Buxoro va Samarqand viloyatlarida bunday yogalarning chetlariga zar iplar bilan tikilgan jiyak (zehi kurta) tikilgan. Ko'ylak yenglari to'g'ri, uzun olinib, bilaklar ustiga tushib turgan.

O'zbek yosh juvonlari farzand ko'rganlariga qadar tik yoqali, ya'ni uchi yuqoriga qaragan uchburchak shaklida parpara yoqali yoki burma hoshiyali ko'ylak kiyishgan.

O'tgan asr oxirida ko'krak qismi ulama qilinib, ko'krak burma ko'ylaklar ham rasm bo'ldiki, bular asta-sekin ayollarning sevimli kiyimi bo'lib, hozirgi paytda ham u milliy kiyimning asosiy shakllaridan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda tik yoqali va yengi manjetli ko'ylaklar ham ayollar orasida ommalashib ketdi. Yoqasi uzun, hoshiyasiz yoki tik yoqali ko'ylaklar kekasa ayollarningina kiyimi bo'lib qoldi.

Yenglari uzun va tor tikilgan ko'ylaklarning, yeng davomiga alohida tirsakdan to bilakkacha bo'lgan qismiga kashta bilan bezatilgan bo'lak tikib qo'yilgan. Qadimda ko'ylakning mana shu joyi ish paytida olinib yoki shimariib qo'yilgan. Bu osin deb atalgan.

Ayollar ust-boshining ikkinchi bir asosiy bo'lagi lozim bo'lib, pochalar torayib kelib, yuqori qismi qayrilib – balyalanib, orasidan ishtonbog' o'tkazilgan. Ko'pincha lozim ikki xil matodan tikilgan, ya'ni ko'ylak ostidan chiqib, ko'rinib turadigan qismi qimmatroq va chiroyliroq, tizzadan belgacha bo'lgan qismi arzonroq gazmoldan tikilgan. Lozim pochalarining chetlari nafis qilib, kashta tikilgan jiyaklar bilan bezatilgan. Lozimlarning kengligi va uzunligi turlicha bo'lgan. Barcha katta yosidagi ayollar uzun pochali lozimda, yosh qiz-juvonlar esa kaltarog lozimda yurganlar.

Paxtali qavima choponlar ayollar uski kiyimining bir turi bo'lib, ular erkaklar choponidan farqli o'laroq, bichimi uzunroq, yogasi ochiqroq va kengroq bo'lgan.

Ayollar choponining yenglari erkaklar choponi yengiga nisbatan kaltarog va kengroq qilib tikilgan. Xorazm ayollarining paxtalik choponlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularning uski qismi qo'lda qavilmay, tikuv mashinasida mayda yo'l-yo'l qilib

balyalangan, tirsak qismida esa qo'lni chiqarib yuvmoq uchun 7 - 10 sm hajmda yirmoch qoldirilgan. Ish paytida yeng xalaqit berib, iflos bo'lmashligi uchun yeng uchlari shimariib qo'yilgan.

Choponning yana bir turi – mursaklar ham ko'p kiyilgan.

Toshkentda – mursak, Xorazmda – misak, Samarqandda – kaltacha, Farg'onada – munisak, munsak, Buxoro va Shahrisabzda – kaltacha nomlari bilan atashgan. Mursakning chopondan farqi shuki, unda yeng ostidan burma qilinib, barlari ulama qiyiq hisobiga kengaytirilgan bo'ladi, etaklari xuddi chopon barlariga o'xshab, birining ustiga biri tushib turadi, yon tomonlarda yirmoch bo'ladi. Mursak paxta solimib qavilgan bo'lishi ham mumkin.

Rossiya O'rta Osiyoni bosib olgach, o'lkada yangi bir shakldagi kiyim – kamzul (kamzuxur, kamzur, peshmat) rasm bo'la boshladi. Kamzul belga biroz yopishib turadigan, kalta, tor yengli, chuqur qaytarma yoqali, ba'zan belbandli, yonlarida, ba'zan ko'krak qismida cho'ntagi bo'lgan chopondir. Kamzullar ko'pincha yorqin rangli yo'l-yo'l begasandan, rangli baxmaldan, tukli duxobadan va boshqa xil chetidan keltirilgan gazmollardan tikilgan.

O'zbek ayollari kiyim-kechagining tarkibiy qismlaridan biri – bosh kiyimidir. Eng an'anaviy bosh kiyim – juda xilma-xil uslubda o'rnatilgan chorsi, ya'ni to'rtburchak shaklidagi ro'moldir. Buxoroda kalta qiyiq ro'molni – rido, Farg'ona vodiysida – kalgay, Xorazmda – ipak ro'mol deb atashgan. O'tgan asrda Rossiya fabrikalarida ishlab chiqilgan ro'mollar, ayniqsa, mashhur bo'lib ketgandi. Guldar tikib ishlangan ipak ro'mol – farang ro'mol, burchaklariga guldasta va o'rtasiga bezak solingan – chorgul, hil-hila, harir ro'mol, naqshli kashmiri shoyi ro'mollar shular jumlasidandir.

Yosh qizlar asosan do'ppi kiyishgan. Qadimda do'ppi o'rtasiga qalpoqcha kiyib, ustidan ro'mol yoki dastor o'rashgan. Qalpoqcha "kulha" yoxud "kiyigich" deb atalib, gardishi yumshoqroq matdan iborat, peshonani sigib turadigan qilib tikilgan. Qadimgi qalpoqchalarning uchida uzun, to'rt burchakli mato bo'lagi bo'lgan bo'lsa, dunaloq shaklda ochiq joy qoldirilgan, ko'pgina o'zbek juvonlari uning atrofini choklab tikib, shu qopcha orasidan soch o'tkazib, tushirib qo'yishgan. Xonlar saroyida yoxud boy-badavonlarning ayollari asosan zar iplar bilan gul solingan kulapo' shaklida kiyishgan. Bu asimiz boshlarigacha davom etib, keyinchalik gul solingan do'ppi kiyish rasi bo'lgan.

CHIRCHIQ SHAHAR
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

AXBOROT RESURS MARKAZI FILIALI
CHIRCHIQ SHAHAR
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
1-FILIALI

5833

Poyabzal ham ayollar kiyimining muhim qismi. «Do'st - boshga, dushman - oyogga qaraydi», degan maqol bor. Ammo o'lkamizda do'stlar ham poyabzalga alohida ahamiyat berishadi. Ayollar poyafzali xilma-xildir. Ular ko'chaga poshnasi yumshoq, qo'yi uzun mahsi-kalish kiyib chiqqanlar. Boyroq ayollar charamga iroqi kashta tikilgan mahsi va kavush kiyishgan. Ayrim joylarda qish faslida yog'och kavush kiyilgan.

Yuqorida qayd etilgan liboslar o'zbek ayollarining bosh-oyoq sarposi, ya'ni milliy kiyimlari to'g'risida ma'lumot beradi, deb o'ylaymiz.

TAQINCHOQLAR VA PARDOZ TURLARI

Turkiy xalqlarda ayollar zeb-ziynat va pardoz-andoz ishlariga qadimdan e'tibor berishgan. XIX asr o'rtalarida taqinchoqlarning rang-barang turlaridan foydalanishiga e'tibor yanada oshdi. Taqinchoqlar tayyorlash bilan asosan zargar ustalar shug'ullanishgan. Ularning ishi murakkab jarayondan iborat bo'lib, didlari, tabiat go'zalligini his qilishi yuksak bo'lgan. Go'zallik asarini chuqur va nozik jihatlarigacha idrok qilganlar. Ayollar uchun ishlangan zargarlik buyumlari xilma-xil va rang-barang bo'lgan, ular bilan bosh va ust kiyimlari bezatilgan. Ushbu sahnaning Xorazm, Farg'ona, Toshkent, Buxoro, Surxondaryo maktabi kabi mashhur maktablari bor edi. Ularda bejirim va nafis bo'lgan quyidagi taqinchoq xillari: bo'yin va ko'krakka taqiladigan paymoncha, orpa jevak, zebigardon, nozigardon, tanga jevak, tumor, bozvand, tillatumorcha, bo'yin tumor, ko'krak tumor, zatkokil, tanga gulli, peshanaga taqiladigan tilla bargon, tillaqosh, jiga, par sochpupuk, naycha sochpupuk, panjara sochpupuk, besh kokil, qubbali sochpupuk, burunga taqiladigan aravak va boshqa xillari yasalgan. **Isirg'alarning** ham ko'plab turlari mavjud bo'lgan: kanazirak, Turkiston baldog, Qashgar baldog, zultukzirak, oybaldog, Farg'onacha baldog, Toshkent baldog, shaldiroq baldog, ko'zi zirak, arava baldog, anjir baldog.

Uzuk turlari: avg'oncha uzuk, ko'zsiz uzuk, rumcha uzuk, ayriband uzuk, shohona quyma uzuk, o'rana uzuk, mis uzuk, tilla uzuk, hoj uzuk.

Bilakuzuk turlari: Sigma bilakuzuk, qo'chqor shoxli rosmana bilakuzuk, chog'roq bilak uzuk, ilonbosh uzuk, bodomcha bilakuzuklar.

Zeb-ziynatlarni zargarlar o'yima usulda yasaganlar va turli rangdagi toshlar: marjon, shisha, sadaf kabilar bilan naqsh berganlar. Surxondaryo va Qashqadaryo qishloqlarida ko'krakka taqiladigan mayda munchoqlardan tuzilgan bezaklar keng tarqalgan. Toshkentda esa dardan yasalgan munchoq, marjon, zumrad va shishadan ishlangan zirak, uzuk va bilakuzuk taqish rasm bo'lgan.

Buxoroda oltin zirak - shibirmak yaproqsimon shaklda bo'lib, katta yoqut ko'zi marvarid yoki dur bilan bezalgan. Barcha bezaklar buyurtma holda tayyorlangan. Boy va zodagon tabaqa, saroy ahllari tilla, kumush kabi qimmatbaho toshlardan zargarlik buyumlari tayyorlaganlar, uni dur bilan bezatganlar, kambag'allar esa mis, jez yoki tilla suvi yuritilgan taqinchoqlardan yasashga buyurtma berganlar.

Xorazm zargarlari yasagan taqinchoqlar ham o'zining g'oyat nafis va go'zalligi bilan ajralib turgan. O'zbek ayollari faqat bejirim taqinchoqlar taqish bilan cheklanmaganlar.

O'zbek xotin-qizlari qadim-qadimdan o'ziga oro berish, go'zal qiyofalarini uzog vaqt saqlashga harakat qilib, upa surtish, gul suvi bilan yuzni yuvish va o'sma, xina yordamida yanada ko'rki bo'lishga intilishgan. Ular go'zallikni yuksak qadrlaganlar. Turli bezak buyumlaridan foydalanganlar. Masalan:

Tillaqosh - yupqa tilla hal yuritilgan kumush plastinkadan yasalib, feruza va boshqa qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Ayniqsa Buxoro, Toshkent va Farg'ona vodiysida rasm bo'lgan.

Osmado'zi - qoshga o'xshab ishlanib, peshonaga taqiladi, shokildalar, nodir toshlar bilan ziynatlanadi, ko'proq Xorazm vohasida rasm bo'lgan.

Bargak ham peshonaga bog'lanib, o'rtasida noyob toshlar joylashtirilgan, uning atrofi mayda feruza toshlar, ba'zan shokildalar bilan bezatilgan. Asosiy qismi to'g'ri to'rtburchak shaklidagi plastinkalari oshiq-moshiqchalar bilan bir-biriga mahkamlab qo'yilgan. Buxoro, Samarqand, Toshkent va Farg'ona vodiysida ko'p tarqalgan.

Zebigardon - bo'yinga taqilib, ko'krakka tushirib qo'yiladi, hulaqacha, sadaf, munchoq-marjonlarni bir-biriga biritirib yasalistih-

dan hosil bo'ladi, qubbalari qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Yuvorida sanalgan viloyatlarda keng rasm bo'lgan.

Uzuk — uchinchi barmogdan tashqari (bu barmogqa faqat yassollar taqishadi) barcha barmogqlarga taqsa bo'ladigan ziyinat belgisi bo'lib, o'rasidagi ko'ziga noir toshlar o'rnatilgan, o'zi olin, kumush, misdan yasalgan.

Bilakuzuk, dastona — tilla, kumush, misdan, munchoq, marjon shodalaridan ham yasaliib, uning bodomcha, yapaloq, ilonboshi, baqqaboshi, rosmana, kichik bilakuzuk kabi turlari mavjud. Buxoro va Samarqandda shabaka, Xorazmda zalvorli bilakuzuk, Toshkent va Farg'ona vodiysida vazni yengil, o'yma naqshli qora kumush suvi yuritilgan bilakuzuklar ko'proq uchraydi. Buxoroda "shibirimak" deb ataladigan turi ham bo'lib, ko'ziga yoqut tosh, atrofiga durlar o'rnatilgan, gultojibarg shaklida ishlanib, shokila va bargaklari bo'ladi.

Istirg'a, zirak — ayollar yoqitiradigan bu ziyinat buyumning ko'ziga noyob tosh o'rnatilib, mayda shisha toshchalardan iborat shokilalari ham bo'ladi. Qashqar baldoq, oybaldoq, halqa kabilar ham quloqqa taqilib, oltin va kumushdan ishlanadi, ko'proq Farg'ona vodiysida uchraydi.

Buloqi xolbin — burunga taqiladigan ziraklardir.

O'ZBEK RAQS SAN'ATI ASOSCHILARI

USTA OLIM KOMILOV
(1875-1953)



O'zbek raqs san'atining rivojlanishida usta doirachi, xalq raqslarining asoschisi, kompozitor usta Olim Komilovning roli juda kattadir. Usta Olim Komilov 1875-yil Marg'ilonda tug'ilgan.

Usta Olim Komilov o'z ijodi davomida o'zbek milliy raqslarining paydo bo'lishi va rivojlanishiga o'zining katta hissasini qo'shgan. Uning sahnalashtirgan raqslari, doira uslari faqatgina O'zbekistonda emas, balki chet ellarda ham muvaffaqiyat qozongan. U o'z ijodini 1920-yilda boshladi. U yoshligidan arava sozlaydigan usta bo'lib ishlagan, keyinchalik doira san'atiga qiziqib qoladi.

1-rasm. Usta Olim Komilov


Uning yoniga 12 yoshi; arman qizi

Tamaraxonim keladi va undan doira usullariga harakatlar o'rgatishni ko'rtaydi. Ular bir necha yil birgalikda ish olib boradilar va kichik truppa tuzadilar. Bu truppa bilan ular butun Farg'ona vodiysidagi barcha shahar va qishloqlarda bo'lib, targ'ibot va tashviqot ishlarini olib boradilar. Bu truppaqa keyinchalik bir gancha qo'shiqchi va raqqosalar kelib qo'shiadilar. Ular teatrlashtirilgan konsertlarni ko'rsatadilar, keyinchalik, 1926-yil 20-aprelda bu truppaqa "taglibrigada" deb nom beriladi. Shu yilning o'zida Narkompros tomonidan «O'zbek etnografik ansamblini tashkil qilish haqida» qaror qabul qilinadi. Shu etnografik ansamblni tashkil etish maqsadida truppa a'zolari Marg'ilonga ko'chib boradilar. Bu ansamblga usta Olim Komilov va Muhiddin Qoriyoqubov rahbarlik qiladilar.


Ansamblida ishtirok etish uchun Farg'ona va Toshkent viloyatlaridan san'atkorlar kelib qo'shildilar. Yusufjon qiziq Shakarjonov, Abduqodir Ismoilov, To'xtasin Jalilov va yana bir qator san'atkorlar shular jumlasidandir.

Usta Olim Komilov Tamaraxonim bilan birgalikda Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi akademik teatrnig 15 yilligiga bag'ishlab, «Tamtana raqsini» sahnalashtirdilar. Keyinchalik usta Olim Komilov Tamaraxonim va Mukarrama Turg'unboyeva bilan birgalikda «Doira darsi» nomli qo'llanmani yaratdilar. Hozirgacha bu kitobdan ham yosh doirachilar, ham yosh raqqosalar darslik sifatida foydalanib kelmogdalar.

Usta Olim Komilov 1953-yilda Toshkent shahrida vafot etadi.



TAMARAXONIM (1906-1991)



2-rasm. Tamaraxonim

Tamaraxonim 1906-yil 29-martda Farg'ona shahri yaqinidagi Gochakov temiryo'l bekatini qo'rg'onida, arman xonadonida dunyoga keldi. U bolalik davridan boshlab qo'shiqchilik va raqs san'ati bilan qiziqdi. Yosh Tamara kechqurini larni gulxan atrofi dadorbozlar, qiziqchilar, raqqos va xonandalar san'atini miriqib tomosha qilardi, antisekin o'zi ham raqsga tushib, qo'shiq aytib boshladi. Yosh, jayji arman qizining o'ziga xos bo'lgan mahoratini kattalar sezib, uni raqsga tortar edilar. Tamara 12 yoshidayoq mashhur bo'lib ketdi.

1918-yili Tamaraxonim Hamza Hakimzoda Niyoziy, usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Muhiddin Qoriyoqubov bilan tushib, katta ustozlar davrasida ijod qila boshlaydi. Tamaraxonim o'z ustozlari haqida shunday degan edi: — «Meni birinchi bor usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonovlar sahnaga qo'limdan tutib olib chiqqan edilar. Ular butun umr men uchun nafaqat muallimlar, hamnafas ustoz bo'ldilar, balki ulkan qalblari bilan meni va ijodimni nihoyatda qadrlaydigan samimiy do'stlarim bo'lib

qolishdi». Haqiqatda ham, Tamaraxonimning boy, ko'p qirrali ijodiy faoliyati shakllanishida ustozlar mehnati katta bo'ldi.

Tamaraxonim 1918-1920-yillardan boshlab, o'z ustozlari bilan birgalikda o'zbek xalqining ma'naviy hayotini bapo etishda betinim xizmat qildi, o'zbek san'atni yuqori cho'qqilarga olib chiqdi, xalqning orzu-niyatlari, tashvishlari, xursandchiligi bilan yashadi. Milliy madaniyatimizni chet ellarda mashhur etdi.

Tamaraxonim 1925-yili Parij shahrida bo'lib o'tgan gastrollarda qatnashib, katta muvaffaqiyatlarga sazovor bo'ldi. Tamaraxonimni Yevropaning mashhur san'atkorlari Anna Pavlova, Aysedora Dunkan, Mixail Folkin, Fedor Shalyapinlar tan olib, uni «afsonaviy Tamara» deb, zo'r hurmat bilan tilga oladigan bo'ladilar. Afsonaviy Tamara 1935-yili London shahrida bo'lib, Xalqaro raqs san'ati festivalida o'z ustozlari bilan qatnashib, «Oltin medal» sovrindori bo'lib qaytdi.

Tamaraxonim milliy balet san'atimizning poydevorini qo'ygan va uning rivojiga katta hissa qo'shgan atqoli ijodkorlardan hisoblanadi. U 1932-yili Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasida balet maktabini ochadi. U abadiy barhayot o'zbek raqs estafetasini o'z shogirdlari Mukarrama Turg'unboyeva, Roziya Karimova, Gavhar Rahimova, Qunduz Mirkarimova, Galiya Izmaylova, Yelizaveta Petrosova, Margarita Ogilova va boshqalar qo'lga tutqazdi. 1939-yili Tamaraxonim Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrida birinchi o'zbek baleti – «Gulandom» asarini yaratdi.

Tamaraxonimning o'lmas va go'zal qo'shiq hamda raqslari, xalq laparlari ikkinchi jahon urushi yillarida jangovar quruqlga aylanadi. Uning san'ati har bir jangchi uchun havodex, suvdek zarur eidi. Tamaraxonim 4-5 yil davomida front brigadalarida qatnashib, 100 dan ortiq konsert berdi.

Tamaraxonim 1950-1960-yillarida barcha xalq va millatlar orasidagi do'stlikni o'zining erkin san'ati bilan yanada mustahkamlashga harakat qildi. Ustoz san'atkorning qo'shiqlari jahon xalqlarining 86 tilida yangradi.

Tamaraxonimning boy ijodiy faoliyati to'g'risida yuzlab maqolalar, bir necha kitoblari yozilgan.

Tamaraxonim o'z xalqiga, uning urf-odati, rasm-rusumlari, an'analariga sodiq bo'lgan holda o'z shogirdlariga qaratib aytgan so'zlari bugun nihoyatda ibratli: «San'atkor xalq hayoti, uning turmushi, orzu-niyatlari bilan yashashi va ularni o'z ijodida ifoda etib bilishi ulug' vazifadir».

MUKARRAMA TURG'UNBOYEVA (1913-1978)



O'zbek xalq raqs san'ati asoschisi Mukarrama Turg'unboyeva 1913-yilda Farg'ona yaqinidagi o'rta hol dehqon oilasida dunyoga keladi. U yoshligidan musiqaga qiziqar edi, maktabda o'qib yurgan chog'idanoq raqs to'garigiga qatnashadi. Uning yoshlik yillari Farg'onadagi tog'asining uyida o'tadi. Mukarramaning san'at yo'lga kirishiga kelinoyisi sababchi bo'lgan. Yosh raqqosaning bu san'atga qiziqishi orta boradi. Usta Olim Komilov va Tamaraxonim o'z truppalariga taklif qiladilar. Mukarrama 1927-yilda

frontda o'z ijodini boshlaydi. 1930-1940-yillarda o'zbek balet san'ati rivojlana boshlaydi va bunda Mukarrama katti hissa qo'shadi. «Buyuk kanal», «Gulandom», «Tog' yuragib», «Oq biyak» baletlarida asosiy raqslarni yuksak mahorat bilan jiro etadi. «Paxta» (1933-yil), «Shoshila» (1938-yil) baletlarini muvaffiq ijro etadi.

1933-yildan Respublika birinchi balet maktabida dars bera boshlaydi.

Ikki raqqosalarga raqs sirlaridan saboq beradi. Ikkinchi jahon urushi yillarida front ichida soldatlarga namoyish etilgan konsert dasturlarida o'zining jozibador raqslari bilan faol qatnashadi.



3-a,b rasmlar. Mukarrama Turg'unboyeva

1954-yili Hindiston, KXDR, Albaniya, Avstriya va Italiyada san'atimizni namoyish etadi. 1957-yilda Mukarrama Turg'unboyeva xotin-qizlardan iborat «Bahor» xalq raqs ansamblini tuzadi. 1960-yili «Bahor» ansambli O'zbekiston Davlat xalq raqs ansambliga aylaniradi.

Mukarrama Turg'unboyeva ansambli uchun «Katta o'yin», «Paxta», «Qorag'alpog'cha», «Namangancha», «Uchrashuv», «Lazgi», «Didor», «Jonon», «Andijon polkasi», «Rohat», «Yetti go'zal», «Toshkent piyolasi» raqslarini sahnalashtiradi. «Bahor» ansambli o'z repertuari bilan butun dunyoni kezib, o'zbek raqs san'atini ko'z-ko'z qiladi.

Buyuk san'atkor Mukarrama Turg'unboyeva 1978-yili 26-noyabrda vafot etadi. Uning raqsga bo'lgan mehr-muhabbatli shunchalik kuchli bo'lib u, faqat raqs bilan yashardi, qalbida borini, umri bo'y i nimaga erishgan bo'lsa barchasini odamlarga baxsh etdi.

ISOXOR OQILOV



4-rasm. Isoxor Oqilov

vor bo'ldi. Isoxor Oqilov 1953-1954-yillarda I.Moiseyev rahbarligidagi turli millat xalqlari raqslari davlat akademik raqs ansambliida ishlashni o'rtirdi. Yetuk artistlardan ta'lim oldi. 1957-yil Respublika filarmoniyasida baletmeyster bo'lib ishlay boshladi. Isoxor Oqilov xoreografik kompozitsiya, yorqin raqsar muallifidir. Ittifoq va chet el davlatlaridagi bayram va konsertlardan o'zining postanovkalari uchun olish va maqtovlarga erishib qaytar edi. Ko'plab professional raqs ansambllari tashkil etishda xizmat qildi. Toshkent to'qimachilar san'at saroyi qoshidagi bolalar raqs ansambli ham xalqaro konkurslarda laureat bo'lgan.

Isoxor Oqilov o'zining ijodiy faoliyati davomida 800 dan ziyod erkak va ayollarning raqslari va ommaviy raqslarni yaratdi. 1970-yil

Samarqand shahrida yashab, ijod etgan Isoxor Oqilov 1930-yil oxirlarida san'at yo'liga kirib keldi. U 1928-yil musiqa va xoreografiya ilmiy tekshirish institutiga o'qishga kirdi. Isoxor Oqilov 1929-yil Respublika eksperimental musiqali drama teatriga ishg'a kirdi. Keyinroq Buxoro musiqali drama teatrida ishladi. U Zarafshon vodiysining folklor raqslarini chuqur o'rganishga erishdi. 1930-yil Isoxor Oqilov butuntitifoq olimpiadasida qatnashib, o'zining raqs san'atidagi mahoratini kursatdi. Isoxor Oqilovning ustozlari raqs san'atining ko'zga ko'ringan namoyandalari usta Olim Komilov, Tamarxonim, Qori Yorgubov, I.Moiseyev, G.Ulomova, R.Zaxarova, L.Lavraski, F.Lopuxov, A.Bek va boshqalardir. 1937-yilda «Charxi» – tizzada aylanish raqsi bilan tomoshabinlar olishiga sazo-


tarkibi 200 kishidan iborat bo'lgan «Shodiyona» ommaviy raqsini yaratdi. Isoxor Oqilovning oilasini raqs laboratoriyasi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Rafigasi Margarita Oqilova va 4 qizi tanqili raqqosalaridir. Isoxor Oqilov sahnalashtirgan raqsalar hamon uning shogirdlari tomonidan ijro etib kelimmoqda. Isoxor Oqilov sahnalashtirgan yakka raqslardan quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- «Lagan raqsi» – N. Shernatov.
- «Tong malikasi» – Q. Do'stmuhamedova.
- «Dil kuylasini» – Dilafruz Jabborova.
- «Gulruh» – Dilafruz Jabborova.
- «Uzum uzuvchi qiz» – L. Oqilova.
- «Nozik tabassum» – Svetlana Tursunova.
- «Orom» – Dilorom Sherova.
- «Katta o'yin» – Halima Komilova.
- «Ufori chilaki» – Klara Yusupova.
- «Larzon» – Qunduz Mirkarimova.
- «Shodiyona» – M. Oqilova.
- «Ufori qalabandi» – Gulchehra Azimova.
- «Pomircha raqs» – Galiya Izmaylova.
- «Duxtaru nola» – T. Yusupova.
- «Sanami» – V. Oqilova.
- «Suxayl va Mehri» – Z. Oqilova.
- «Ey, dilbari jonim» – M. Ahmedova.

MARGARITA OQILOVA



Margarita Bahlulovna Oqilova 1920-yilda Samarqand shahrida tug'ildi. Orasi Bahlul Binoyaminzoda aslida Eron millatidan bo'lib, yoshligida Bag'doddan Samarqandga kelib, hayot kechirishgan. Musiqaga va raqs san'atining xilma-xil turlari baralla yangrab turgan oila yosh Margaritaning kelajakda tanqili raqqosa va baletmeyster bo'lib yetishuviga ijobiy ta'sir ko'rsatdi va uni jozibador raqsalar olamiga olib kirdi.



5-a,b rasmlar.
Margarita Oqilova

Margaritaning raqqosalik mahorati zamondosh raqqosalar faoliyatida mavjud bo'lgan ijodiy muhit ta'siri ostida shakllandi va rivojlandi. Samarqand shahrida 1919-yilda tug'ilgan drammatik studiya bazasidagi «Xalq teatri»da ishladi.

Margarita Oqilovaning o'zi: «Men besh yoshligimda raqsqa tusha boshladim, chunki opam Tamara ham raqsqa tushardi. Men bo'lsam dastlab uning qo'l va oyog' harakatlariiga diqqat bilan qarab turar edim, keyin ularni o'rganib, raqsqa tushardim. «Mirzadavlat», «Mahor», «Dilxiraj», «Qoshi qora»,

«Doira bozi» kabi har xil tema kuy-larga o'ynardim», – deb es-lardi.

Bo'lajak raqqosa 1932-yilga qadar Samarqand teatri san'atkorlari muhitida tarbiyalandi va raqsga astoydil ko'ngil qo'ydi. 1932-yil Oqilovlar oilasi Tojikiston Respublikasi poytaxti Dushanbe shahriga ko'chib keldilar. Milliy kuy-larning keng tarqalishi raqqosa Margaritaning raqs repertuarini boyitishda muhim rol o'ynadi. Uning repertuariga «Pomircha», «Afg'oncha», «Dashnobodcha», «Tojikcha» kabi raqs-lar kirdi. Margarita ijrosida bu raqs-larni tomoshabinlar sevib qolgan edilar. Ammo Margarita raqs sirlarini yanada chuqurroq o'zlashtirishga, kelgusida taniqli raqqosalar qatoriga kirib, istagan paytda tabarruk sahna maydoniga chiqishga, xalqqa yoqqan va o'zini butunlay qoniqtirgan raqs-larni ijro etishga ijtihod qildi. Margarita Samarqand teatrida faqat raqs san'ati bilanagina chegaralanib qolmadi. Sekin-asta raqs sahnalashtira boshladi.

Ular keyinchalik oilasi bilan Toshkentga ko'chib keldilar. Margaritaning umr yo'ldoshi taniqli baletmeyster Isxor Oqilov Toshkentdagi O'zbekiston Davlat filarmoniyasining bosh baletmeysteri qilib tayinlandi. Margaritani esa yetakchi raqqosa va baletmeyster sifatida ishga taklif etishdi. 1955-yildan boshlab hayotini, faoliyatini badiiy havaskorlik to'garagi san'atini rivojlantirish yo'liga qaratdi. Margarita Oqilovning o'rancha qizi Zulayho va kenja qizi Lola Oqilovlar ham o'zbek raqs san'atining rivojlanishi yo'lida sidqiddidan xizmat qilib kelmogdalar.

Margarita Oqilova o'z qizlarini ham ko'p yillar davomida tarbiyalab, raqs san'atiga olib kirdi. Ayniqsa katta qizi Viloyat Oqilovning ijodi raqs shina-vandalari qalbidan chuqur o'rin olgan.

Margarita Oqilovadan raqsni yaratish jarayonida sizga nima yordam beradi, deb so'rasangiz: «Hayotning o'zi» deb oddiy javob beradi. Bu ikki so'zda Margarita Oqilovning badiiy-g'oyaviy rejalari poydevori qurilgan.

Ijodkor haqiqatdan ham hayotga, tabiatga o'tkir nazar tashlab, undagi jozibali tomonlarni badiiy o'zlashtirib, o'z san'atiga singdiradi. Bizning rang-barang ma'naviy hayotimiz raqqosa ijodini boyitib, uni san'at cho'qqilari tomon yetaklab boraveradi.

QUNDUZ MIRKARIMOVA



1928-yil Toshkent shah-rining Qo'yliq dahasi-da jayigina qizaloq dunyoga keldi. Yoshlik chog'laridan oq u raqsga va mu-siqaga mehr qo'ygan bu qizaloq keyinchalik o'zbek xalqining mashhur raqqosasi bo'lib tanildi.

6-rasm. Qunduz Mirkarimova

U 1939-yilda Xoreog-rafiya bilim yurtiga o'qishga kiradi. Usmon Yusupov va ustoz san'atkor Mukarrama Turg'unboeva tavsiyasi bilan 1949-yilda Moskva xoreogra-fiya bilim yurtiga o'qishga kiradi. U yerda Mariya Alek-sandrova Kejuxova qo'lida tahsil oladi va bilim yurtini 1952-yilda tugatadi.

1953-yildan boshlab Qori Yoqubov nomli O'zbek filarmo-niyasiga ishga kiradi.

1956-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvonini oldi.


1957-yildan «Bahor» xalq raqs ansamblida solistka va repititor bo'lib ishladi, shu bilan birgalikda, xoreografiya bilim yurtida dars berib boshladi.

1967-yilda O'zbekiston xalq artisti unvoni berildi.

Qunduz opa uchun 1993-yil unutilmas yil bo'lib, Prezidentimiz Jalol Abdug'aniyevich Karimov o'z qo'li bilan «Xalqlar do'stligi» ordenini topshirdi.

Professor Qunduz Mirkarimova 1957-yildan to shu kungacha Oliy raqs va xoreografiya maktabida raqs sirlarini o'sib kelayotgan yosh avlodga o'rgatib kelmogda.

GALIYA IZMAYLOVA



7-rasm. Galiya Izmaylova

Galiya Izmaylova 1923-yilda tavallud topgan. U o'zbek xalqining birinchi balet raqqosasidir. U 1941-yilda o'zbek balet maktabini tamomlab, Navoiy nomidagi opera va balet teatriga ishga keladi. Shu yillar mobaynida bir qancha balet spektakllarida bosh rollarni ijro etdi. 1943-yilda «Oq bilak» baletida Semurg' obrazini yaratdi. 1945-yilda «Bog'chasaroy fontanida» Zarema obrazini yaratdi. 1961-yilda Toshkent teatr va rassomchilik institutini ham tamomladi. Bir qancha spektakllarda ajoyib obrazlar yaratdi. Bulardan:

1. 1949-yil «Balerino» baletida Gulnora obrazi.
2. 1948, 1960, 1973-yillarda «Don Kixot» baletida Kitti obrazi.
3. 1949-yil «Krasnyy mak» baletida Tao Xao obrazi.

4. 1957-yil «Jizel» baletida Jizel obrazi.

5. 1960-yil «Balero» baletida Karmen obrazi.

6. 1961-yil «Kashmir afsonasi» baletida Nargiz obrazi va boshqalar. 1977-yildan boshlab shu teatrd bosh baletmeyster lavozimida ishladi va bir qancha balet spektakllarini sahnalashtirdi. Jumladan:

1. 1959-yil Chaykovskiyning «Oqush ko'li» baleti.
2. 1960-yil Ravelning «Balero» baleti.
3. 1961-yil Mshelning «Kashmir afsonasi» baleti.
4. 1969-yil M. Ashrafyning «Sevgi tumori» baleti.

Galiya Izmaylova o'zining ijodiy faoliyatida yangi klassik sahnaviy raqs janrini vujudga keltirdi. Bu raqs janri shargona bo'lib, o'zbek xalq raqsini Yevropa klassik raqslari bilan mujassamlashtirdi va Xorazmcha, Buxorocho, Pomircha, Farg'onacha va jahon xalqlar raqslarining mohirona ijrochisi bo'ldi.

Galiya Izmaylovaga 1950-yilda Davlat mukofoti va 1970-yilda Hamza mukofoti berilgan.

BERNORA QORIYeva



Raqs san'ati tarixi o'zining san'ati, hayoti va ijod etgan raqslari, yaratgan asarlari bilan mashhur bo'lgan san'atkorlar haqida ma'lumot beradi. Mana shunday asarlar yaratib, tarixda nom qoldirgan raqqosalardan biri Bernora Qoriyevadir.

Bernora Qoriyeva 1955-yili Moskvadagi xoreografiya bilim yurtini bitirgach, Toshkentga kelib, Alisher Navoiy nomidagi akademik opera va balet teatriga ishga kirdi. Uning bu yerda yaratgan ilk rollardan biri «Prim» balerina va boshqa qator rollari o'zbek xoreografiya san'atining muvaffaqiyatidir.

«Anna Karenina» baletida Anna rolini, «Tohir va Zuhra» baletida Zuhra rolini, «Oqush ko'li» asarida Odetta rolini, «Maskarada» Nina, «Qiz va Kulgan»da qiz va boshqa qator rollarni maroq bilan o'ynagan. Shu jumladan, «Oqush ko'li», «Shaplana», «Spartak», «Don Kixot», «Temur Malik» spektakllarida bir qancha rollarni ijro etgan.

Ijodiga 10 yil to'lgach, «O'zbekiston Xalq artisti» degan unvonga sazovor bo'ldi.

1957-yil Bernora Qoriyeva klassik raqqosalar ichida kumush medal bilan taqdirlandi.

Bernora Qoriyeva bir necha davlatlarda, ya'ni Amerika, Yaponiya, Koreya, Angliya gastrol safarlarida bo'ldi.

Klassik raqslardan tashqari Bernora Qoriyeva o'zbek milliy raqslaridan Farg'onacha, Buxorocho va Xorazmcha raqslarni ham juda sevilb ijro etgan.

1960-yillar oxirida «Yeti bahodir va Malika» baletida o'ynadi. 1971-yilga kelib, Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrida «Imovar» baleti qo'yilib, Bernora Qoriyeva unda o'zining go'zal raqslari bilan bosh rolni ijro etadi.

Hozirda Bernora Qoriyeva teatrd cheklanmagan holda teatr jamoiasi rasi lavozimida ish faoliyatini davom ettirmoqda.

Bernora Qoriyeva raqsga butun umrini baxshida qilgan san'atkorlardan biridir.

O'ZBEK MILLIY RAQS DASTALARI

Mustaqillik sharofigi bilan qadimgi urf-odat, an'ana va marosimlarga e'tibor berilmogda.

Vatanimiz mustaqilligi tufayli yangicha an'analar, marosimlar va urf-odatlar qaror topdi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarini tiklash, unutilgan an'analarni keng ommalashtirish va ularni chuqur o'rganish uchun qulay sharoitlar yaratildi. Bu esa Milliy xoreografiya san'atiga ham katta mas'uliyat yukladi.

O'zbek milliy raqs san'ati noyob va benazirdir.


Professional raqs san'ati necha-necha asrlardan buyon raqgosalarni kamolga yetkazishning o'ziga xos uslubiga egadir, shu boisdan ham XX asr mutaxassislari bu ko'hna shakl va uslublarni «O'zbek muntaz raqsi» deb ataydilar.

Bu san'at ikki ming yil mobaynida xalq raqsining sarhad bilmas usullaridan bahramand bo'lib kelmogda.

Raqs san'ati tarixidan ma'lumki, amaliyotida "maktablar" deb ataladigan to'rtta hududiy raqs guruhi tarkib topdi. Bular Farg'ona, Buxoro, Toshkent va Xorazm raqs maktablari. Ularning tarkibiga tog'liklarning ana shunday maktablari ham kiradi. Ularning o'zlariga xos mazmuni, zarblari, ohanglari, harakatlari, his-tuyg'ulari bor.

Bu boy merosni asrash va rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning farmoni bilan 1997-yilda Milliy raqs birlashmasi tuzildi va unga buyuk raqgosa Mukarrama Turg'unboyevaning nomi berildi. Birlashmaga O'zbekistonning barcha viloyatlaridan 13 ta raqs dastalari, shuningdek, Toshkent shahridagi «Bahor», «Lazgi», «Tanovar», «Zarafshon» kabi 4 ta raqs jamoasi kiradi.

«Bahor» raqs dastasi



9-rasm. «Bahor»

«Bahor» raqs dastasi 1957-yil O'zbekiston xalq artisti Mukarrama Turg'unboyeva tomonidan tashkil etilgan. Mukarrama opa ayollar raqs jamoasini tuzishga qaror qilib, uning tarkibiga professional raqgosalar tanlab olindi. Dasta qisqa muddat ichida O'zbekistonda katta shuhrat qozondi, 1957-yili Moskvada o'tkazilgan Jahon yoshlar festivalida qiyin ahvoldan o'tib, birinchi mukofotga sazovor bo'ldi.

Ansamblning musiqa rahbari Salohiddin To'xtasimov bo'lgan. Mukarrama Turg'unboyeva va Salohiddin To'xtasimov birgalikda ansambl repertuarida O'zbekistonning barcha viloyatlari raqslarining butun jozibadorligi va o'ziga xos xususiyatlari bilan yorqin aks ettirilgan. Ijro usuli, liboslar, ohanglar shunday saralandiki, sahnada Farg'ona xotin-qizlarining san'ati aks etdi.

Farg'ona raqsilariga xos bo'lgan mayinlik yakka va ayniqsa, jamoa raqsalarida o'z aksini topdi. Raqs dastasi nafaqat O'zbekiston bo'ylab o'z raqsalarini namoyish etdilar, balki ular butun jahonga O'zbekiston raqs san'atini go'zal va nafisligini namoyish etdilar. Ular ijrosidagi «Bahor» va «Minjotob», «Nangangning olmasi» va boshqa yuzlab raqslar butun jahon bo'ylab kezip katta olqishlarga sazovar bo'ldi.

«Lazgi» Davlat ashula va raqs ansambli



10-rasm. «Lazgi»

1968-yilda O'zbekiston xalq artisti Gavhar Rahimova badiiy havaskorlar orasidan iste'dodli yoshlarni tanlab olib, «Lazgi» ashula va raqs ansambli tuzadi.

Roziya Otajonova Xorazm xalq laparlari va raqslarining mohir ijrochisi bo'lgan. U raqs mahorati bo'yicha hech bir san'at dargohida o'qimagan bo'lsa ham, xalq ijodiyotini yaxshi bilgan. «Lazgi» ansambli avval qo'shiqchi va garmonchilar jo'rligida faoliyat ko'rsatgan. Keyinchalik raqqosalar ham qo'shilib, ashula va raqs ansambliga aylantirildi. Komiljon Otaniyozov, Olmaxon Hayitova, Ortiq Otajonovlar ham shu ansamblda ijod qilganlar. Zuhra G'iyosova 25 yildan buyon shu ansamblda baletmeyster bo'lib ishlab kelmoqda. Hozirgi kunda bu ansambлга Rahmatjon Qurbonov rahbarlik qilmoqda. Raqqosalardan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Feruza Solihova, Nargiza Xo'jaxonova yosh raqqosalar ko'rigi grandpri sovrindori, shu ansambling faxriylaridir. Bu ansambл juda ko'p ijodiy safarlarda bo'lib, Amerika, Afg'oniston, Germaniya, Yaqin Sharq, Fransiya, Tunis mamlakatlarida o'z konsert nomerlarini namoyish etishgan. Ularning repertuarlaridan «Lazgi», «Norin-Norin», «Orazbon lazgisi», «Barigal» va boshqa bir qancha xorazmcha qo'shiq va raqslar o'rin olgan.

Bu ansamblni tuzishdan maqsad o'zbek raqsining Xorazm mahabbini rivojlantirish va Xorazm xalqining timsoli bo'lmish eng sho'x, quvnoq raqslarni ommalashtirishdir. «Lazgi» raqsining harakatli uchayotgan oqushning intilishini, yugurayotganini eslatadi. Mozik, chiroyli qo'llarining silkinishi esa betakror joziba kasb etadi. Rossiya va Ukraina, Tunis va Marokash, Hindiston va Efiopiya, Turkiya va Yaponiya xalqlari bu ansambл san'atiga tasannolar aylabgan.

Ansambл dasturi kamalakdek tovlanган xilma-xil raqslardan iborat. Xorazm xalqining sho'x-shodonligi, bu xalqning urf-odatlari o'ziga xos go'zal raqslar orqali ifoda etilgan.

«Tanovar» o'zbek raqs teatri



11-rasm. «Tanovar»

Birinchi raqs teatrlining asoschisi Yulduz Ismatova 1989-yilda «Tanovar» raqs jamoasini tuzdi va shu yili birinchi raqs teatrlini tashkil etdi.

Yulduz Ismatova tashabbusi bilan tashkil topgan «Tanovar» raqs teatrlining dastlabki dasturi «Sharq ayoli» degan teatrlashtirilgan konsertdan iborat edi. Unda «Munjo't», «Anor-anor», «Raqqosa», «Xorazmcha», «Doira», «Ey, sarvi ravon», «Suv parisi», «Afg'oncha», «O'xshar» kabi sof va yallali raqslar «Sovchi kutish»,

«Non ushatish», «Qizlar bazmi», «Kelin salom», «Beshik allasi» singari etnografik lavhalar bilan uyg'unlashdi.

Alisher Navoiyning «Sab'ayi sayyor» asari asosidagi «Sevgi nidosi», «Nodira» drama baletlari shuhrat qozondi. Ayniqsa, ikki pardali «Ulug'bek» baleti alohida o'rinda turadi, unda ulug' insonning ehtirolari va izzitoblari aks ettirildi. Yulduz Ismatovning sahnalashtirgan baletlari va «Tanovar» dastasining san'at ahli tomonidan e'tirof etilishi jahon xoreografiyasida noyob hodisadir. Bularda o'zbek xalqi tarixiy va zamonaviy rags maktabining noyob imkoniyatlari ro'yobga chiqqan.

Bu rags teatri o'zining turli rags asarlari bilan san'at ahli ko'nglini zabt etgan. Bundan tashqari 1999-yilda «Tanovar» rags teatri Niderlandiyada o'tgan xalqaro festivalda qatnashib, ulkan muvaffaqiyatni qo'lga kiritdi.

MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEK XOREOGRAFIYA SAN'ATI RIVOJIGA HISSA QO'SHGAN BALETMEYSTERLAR

Vatanimiz mustaqilligi tufayli yangicha an'analar, marosimlar va urf-odatlar qaror topdi. Ular tarixga aylanib borar ekan, sodir bo'lgan buyuk voqealarni, xalqimiz turmushidagi unutilmas hodisalarni o'zida mujassamlashtirdi. O'zbek xalqining qadimiy urf-odat, an'ana va marosimlarga alohida e'tibor berishi ma'naviy olibonish jarayoni jadal kechayotgan hozirgi kunda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki kishilarni yangicha ruhda tarbiyalash, ularning ongiga milliy mustaqillik g'oyalarini chuqurroq singdirish, ajdodlarimiz yaratgan qadriyatlar mohiyatini keng targ'ib qilishda, an'ana va marosimlar mohiyatini anglash, ularni ayniqsa yoshlarga chuqurroq oshuntirish, milliy istiqol g'oyasini keng omma orasiga targ'ib qilishda eng ta'sirchan vositalaridan biri rags san'ati hisoblanadi.

Ma'lumki, bayramlar qadim davrlardan boshlab inson hayoti-ning eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan. Rags esa insoniyat hayotining eng yaxshi va go'zal tomonlarini aks ettiruvchi ko'zgudir.

Masalan, mustaqillik sharofiga bilan Navro'z bayrami O'zbekistonda har yili keng tantanalar bilan nishonlanmoqda. Ya'ni 1990-yildan buyon, 21-mart kuni «Navro'z» ommaviy bayram sifatida tantanali o'tkaziladi. O'zbekiston Mustaqil bo'lgandan so'ng esa respublikamizning asosiy rasmiy bayramlaridan biriga aylandi.

1991-yil 31-avgust esa O'zbekiston Mustaqillikka erishgan kun. Bu ikkala bayram rags ustalari – baletmeysterlar va raqqosalar zimmasiga ulkan mas'uliyat yukladi. «Navro'z» va «Mustaqillik» bayramlariga tayyorgarlik 2-3 oy oldin boshlanadi. Respublika, viloyat, shahar, tuman, korxonalarda bayramni tashkil qilish kengashlari ish boshlaydi. «O'zbek rags» birlashmasida viloyatlar bo'yicha tuzilgan 13 ta rags dastalari va «Bahor», «Lazgi», «O'zbekiston», «Tanovar» rags jamoalari bayramlarda qatnashib, katta olqishlarga sazovor bo'lib kelmoqdalar.

Bu o'qishlarga sazovor bo'lishlarida raqs ustalari — baletmeysterlarining o'zida juda katta. O'z mashhaqatli mehnatlari orqali xalq urf-odatlarini, qadriyatlarini o'z raqslarida ifoda etishga harakat qilishadi.

Bulardan O'zbekiston xalq artisti Akbar Mo'minov, «Tanovar» raqs teatri baletmeysteri Yulduz Ismatova, «O'zbekiston» ashula va raqs dastasi baletmeysteri Qodir Mo'minov, «Bahor» Davlat raqs dastasi baletmeysteri Ma'mura Ergasheva, Shokir Ahmedovlarni faxr bilan qayd etish mumkin.

AKBAR MO'MINOV

A.N.Mo'minov 1935-yilda Andijonda tug'ilgan. 1955-yilda Toshkent xoreografiya bilim yurtini tugatib, O'zbekiston Davlat filarmoniyasining ashula va raqs ansambliga ishga kelgan. Uning mehnat faoliyati quyidagi tarzda davom etgan: 1955-59-yillar O'zbekiston Davlat filarmoniyasida «Ashula va raqs» ansambli balet artisti; 1959-1961-yillarda O'zbekiston Davlat filarmoniyasi «Ashula va raqs» balet solisti; 1961-1965-yillar davomida Moskvadagi Lunacharskiy nomli GITStalabasi; 1965-1968-yillarda O'zbekiston Davlat filarmoniyasi «Ashula va raqs» ansambliga bosh baletmeyster etib tayinlangan; 1968-1975-yillarda Samarqand Davlat «Opera va balet» teatrining bosh baletmeysteri; 1975-1976-yillarda Sirdaryo viloyati Guliston shahar musiqliy drama teatrining baletmeysteri; 1976-1978-yillarda Qori Yoqubov nomidagi O'zbekiston Davlat filarmoniyasi «Shodlik» ashula va raqs ansamblining bosh baletmeysteri; 1978-1979-yillarda Toshkent Davlat Madaniyat institutining katta o'qituvchisi; «Xoreografiya» kafedrasining dotsenti; 1987-1997-yillarda «Xoreografiya» kafedrasini mudiri.

1997-yilda Toshkent Davlat Milliy raqs va xoreografiya Oliy maktabi tashkil etilishi munosabati bilan Toshkent Davlat Madaniyat institutining «Xoreografiya» kafedrasini Oliy maktab ixtiyoriga o'tkazildi va A.N.Mo'minov hozirgi paytda «O'zbek raqs» kafedrasining mudiri vazifasida ishlab kelmogda.

A.N.Mo'minov o'zining 47 yillik mehnat faoliyatida xalqimiz xoreografiya san'ati ravnagiga tinmay o'z hissasini qo'shib kelmogda. Ko'plab balet spektakllari va konsert dasturlarini sahnalashtirdi.

Moskvadagi teatr institutida tahsil olgan paytlarida P.I.Chaykovskiyning «Francheska da Rimini» baletini qo'ydi va bu spektakl Moskva, Leningrad, Novosibirsk, Qohira shaharlarida namoyish etilib, tomoshabinlar olishiga sazovor bo'ldi. Keyinchalik u sahnalashtirgan «To'ychi Ejigito jasonati», «Samarqand afsonasi», «Suv haqida poema», «Gulshan», «Shoir yuragi», «Tohir va Zuhra», «Demon», «Zafar», «Maysarining ishi» balet va opera spektakllari, 1965-76-yillarda «Shodlik» ansamblida qo'ygan raqs nomlari tomoshabinlar qalbida chuqur iz qoldirgan.

Akbar Mo'minov ajoyib va sofiil inson, mehribon va kamtarin ustoz. U kishining minglab shogirdlari Vatanimiz va chet ellarda o'zbek xoreografiya namunalari namoyish qilishmogda.

Davlatimiz A.N.Mo'minovning mehnatlarini munosib taqdirlab, 1974-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvonini berdi.

YULDUZ ISMATOVA (1944-2004)



Yulduz Ismatova 1944-yil 31-oktabrda Toshkent shahrida, san'atkorlar oilasida tug'ildi.

Yulduzning raqsga bo'lgan qiziqishini ko'rgan otasi – tanikli aktyor Asat Ismatov uni xoreografiya bilim yurtiga olib ketadi. Shu bilim yurtini tugatgan yoshi raqqosa 1963-yilda Muqimiy nomidagi musiqali teatrga kelib, o'z faoliyatini boshlaydi. 1984-yili M.Uyg'ur nomidagi San'at institutini tamomlaydi.

Yulduz Ismatova keyinchalik Muqimiy teatrida baletmeyster bo'lib ishlaydi. 1988-yilgacha Muqimiy teatrida bosh baletmeyster sifatida ijod qildi.

12-rasm. Yulduz Ismatova

1988-1997-yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi telera-

diokompaniya tizimidagi «Tanovar» raqs teatrida badiiy rahbar va bosh baletmeyster bo'lib ishlaydi. Ish davrida «Ulug'bek burji», «Turon malikalari», «Uvaysiy» nomli teatrlashtirilgan raqs kompozitsiyalarini yaratdi. Navro'z umumxalq bayramida, Mustaqillik bayramlarida ijro etilgan raqs kompozitsiyalariga baletmeysterlik qilgan Yulduz Ismatovaning xizmatlari Davlatimiz tomonidan bir necha bor taqdirlandi.

1995-yilda u O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvoni, 1997-yilda Xalqlar do'stligi ordeni bilan mukofotlandi.

1997-yildan boshlab M.Turg'unboyeva nomidagi «O'zbek raqs» birlashmasining bosh direktori bo'lib ishladi.

Yulduz Ismatova ijodining gullagan bir davrida – 2004-yil 10-oktabrda hayotidan bevaqt ko'z yumdi.

MA'MURA ERGASHEVA



O'zbek xalqining sevimli va tanikli raqqosalaridan biri Ma'mura Ergasheva 1951-yil 25-yanvarda Toshkentda san'atkorlar oilasida tug'ildi. Onasi – Rismatova To'xtaxon O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist. Otasi – Xalq hofizi Zokirjon Ergashev. Ma'mura Ergasheva 1969-yilda xoreografiya bilim yurtini tamomlab, Davlat «Bahor» xalq raqs ansambliga ishga qabul qilindi.

13-rasm. Ma'mura Ergasheva

O'zbekiston xalq artisti, Davlat mukofoti laureati Mukarrama Turg'unboyeva rahbarligida shu ansamblda faoliyat ko'rsatdi.

1978-yilda «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist» unvoniga sazovor bo'ldi. 1983-yilda «Xalq artisti» unvonini oldi. 1999-yilda «Mehnat shuhrati» ordeni bilan mukofotlandi.

1990-yildan buyon «Bahor» raqs ansamblining rahbari sifatida faoliyat ko'rsatib kelmogda. Berlin, Sofiya, Kuba, Moskvada bo'lib o'tgan festivallar laureati. «Mening birinchi ustozim», – deb eslaydi Ma'mura, – Sora Mushveyeva, Margarita Oqilova, Isoxor Oqilov.

Ular menga «Larzon» raqsini o'rgatishdi. Keyinchalik bu raqs muvaffaqiyat qozonib, mening repertuarimga kirib keldi. Bilim yurtida Xalq artisti Gulnora Nizomova, Qo'rqmas Soatov, Lev Aleksandrovich Zas, Grigoriy Ijitskiy, Roziya Karimova, Qunduz Mirkarimova, T.Litvinova kabi ustozlar qo'lida tahsil oldim.

Bu muvaffaqiyatlarga erishishimga san'atkor oilasida tug'ilganim ham sababdir. Chunki onam yoshligimdanoq meni san'atga, raqs san'atiga muhabbatimni oshirdi, raqs sirlarini egallashimda menga yordam berdi. Men onamdan juda ham minnatdorman.

Mukarrama Turgunboyeva 20 yil mobaynida Ma'muraxonga ustozlik qildi va bir qancha raqslar sahnalashtirdi. «Nozanim», «Gul-sara», «Munajot», «Tanovar», «Doira raqsga chorlaydi», «Rohat», «Farg'ona raqsi», «Farg'ona ruboysi», «Zavqim kelur», «Jonon», «Pilla» shular jumlasidan. Bu raqslarning hammasi hozirgi vaqtda raqs merosiga, ya'ni raqs san'atining olin durdonasiga aylanib qoldi.

1979-1988-yillarda O'zbekiston xalq artisti Qunduz Mirkarimova bilan hamkorlik qildi va «Maqom», «O'rik gullaganda», «Eroncha», «Tanovar-2», «Xamsa», «Xotira», «O'n sakkiz yoshinda» kabi bir qancha raqslarni sahnalashtirdilar.

1990-yildan boshlab o'zi ham baletmeyster sifatida raqslar sahnalashtirib, bu raqslar mutaxassislar tomonidan yaxshi baholandi. «Fig'onkim», «Bahor ayyomi», «Sumalak», «Navro'z kelur», «Mukarrama xonim», «O'ynasa», «Sening garashlaring», «Nurxon», «Tavois» va boshqa yuzdan ortiq yakka raqslarni sahnalashtirib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

1991-yildan buyon «Mustaqillik», «Navro'z» umumxalq bayramlarida bosh baletmeysterlik qilib kelmogda. Bundan tashqari, Farg'onada bo'lib o'tgan al-Farg'oniy tavalludining 2500 yiligi, Samarqandda o'tgan Amir Temur yubileyida va «Sharq taronalari» san'at anjumanlarida ham bosh baletmeysterlik qildi.

Ma'mura Ergasheva o'z shogirdlariga chin dildan raqs sirilarini o'rgatib kelmogda. Uning ko'plab shogirdlari o'zbek raqs san'atini butun dunyoga ko'z-ko'z qilmoqdalar.

SHOKIR AHMEDOV

Taniqli san'at arbobi Shokir Ahmedov 1962-yilda O'zbek koreografiya bilim yurtini tamomladi. Shu yili M.Qoriyogubov nomidagi filarmoniya qoshidagi «Shodlik» ashula va raqs ansambliga raqqos bo'lib ishga kirdi.

1968-yilda Moskvadagi GITSDa baletmeyster bo'lib ishladi. Yuzdan ortiq raqslarni sahnalashtirdi. Ansaml Qozog'istonda bo'lib o'tgan dekadada ishtirok etib, katta olqishlarga sazovor bo'ldi. 1975-yildan buyon Muqimiy nomidagi musiqali teatrga bosh baletmeyster bo'lib ishlab kelmogda. Bir qancha spektakllarga raqslar sahnalashtirib, muvaffaqiyatga erishdi.

«Navro'z» umumxalq bayramida va Mustaqillik bayramlarida bosh baletmeysterlik qildi. Muqimiy musiqali teatrida bir qancha spektakllarga rejissorlik qildi. «Simbadning sayohati», «Oltin yulproq», «Hasan kavyr» spektakllari shular jumlasidandir. Shokir Ahmedovning ijodiy faoliyati Davlatimiz tomonidan yuksak mukofotlar bilan taqdirlandi.

U davlatimizning bir qancha mukofot va faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

2000-yili Shokir Ahmedovga «O'zbekiston san'at arbobi» unvoni berildi. Chet el safarlarida bo'lib, mustaqil O'zbekistonimiz san'ati dovrug'ini butun dunyoga tanitishda o'z hissasini qo'shdi.

1975-yildan buyon Toshkent san'at institutida dotsent bo'lib ishlab kelmogda.

ERKINOV SAYITOVA



14-rasm. Erkinov Sayitova

Erkinov Sayitova 1956-yil 8 oktabr Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyatida tavallud topgan. 1971-yildan O'sh shahar S.M.Kirov nomli teatrlar studiyasida ish boshlagan. 1974-yilda Toshkent Davlat Madaniyat instituti xoreografiya bo'limiga o'qishga kirdi va 1978-yilda muvaffaqiyatli tamomladi. Shu yillar mobaynida aviasozlar zavodi qoshidagi «Parvoz» ansambliida bolalar jamoasining raqs guruhiga rahbarlik qildi. Toshkent traktor zavodi qoshidagi Madaniyat saroyida raqs jamoasining rahbari lavozimida ishlagan. Badiiy havaskorlik san'atining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. 1980-yildan boshlab Toshkent Davlat Madaniyat instituti xoreografiya kafedrasida O'zbek raqs o'qituvchisi bo'lib ishlay boshlagan. 1997-yildan Prezident qaroriga asosan, xoreografiya bilim yurtining Milliy raqs va xoreografiya oliy maktabiga o'tkazildi. Mana shu yildan boshlab Erkinov Sayitovaga «Katta o'qituvchi» nomi berildi. 1998-yilda O'zbektelevidiokompaniyasi qoshidagi maqom ansambliida «Sarvinoz» raqs dastasini tuzdi. Bu raqs dastasi bir necha bor chet el safarlarida bo'lishgan. Jumladan Turkiya, Hindiston, Livov, Moskva, Ivanova va boshqalar. 2003-yilda Davlat tomonidan «Faxriy dotsent» unvoni berildi. 2004-yildan boshlab Milliy raqs va xoreografiya oliy raqs maktabining kafedra mudiri etib tayinlandi. Hozirda Navro'z umumxalq bayramlarida va Mustaqillik bayramlarida bosh baletmeyster bo'lib faoliyat ko'rsatib kelmogda.

RAQS SAHNALASHTIRISH

«Raqs sahnalashtirish» fani 2 – nazariy va amaliy qismdan iborat.

Nazariy qismda amaliy qismining mazmunini, mavzusini, raqs namalarini, raqsni sahnalashtirish usullarini, shakllarini, dramaturgiya qonunlarini, rejessurasini o'rganamiz. Amaliy qismda biz nazariy qismda o'rganagan bilimlarimizni amaliyotda qo'llaymiz.

«Raqs sahnalashtirish» fani havaskor raqs jamoasi rahbari tayyorlashda asosiy fandir. Bu fan xalq raqsi, klassik, bal raqlari (mamlardan olingan bilimlarni umumlashtiradi. Bo'lg'usi rahbar bu kasbni egallashda 3 bosqichda ta'lim oladi:

1. Xoreografiya (klassik raqs, xalq raqsi, merosiy raqlar).
2. Musiqqa (musiqqa nazariyasi, musiqqa tahlili)
3. Rejissura (aktyorlik mahorati)

Raqs jamoasi rahbari jamoaning badiiy saviyasini belgilaydi. Baletmeyster yangi xoreografik asar yaratuvchisi bo'lgani uchun xoreografiyadan tashqari rejessyor-sahnalashtiruvchi va muallif-dramaturglik bilimlarini ham bilishi kerak.

Xoreografiya obrazlari ustida fikr yuritish qobiliyati bilan baletmeyster-dramaturg yoki rejesserdan farq qiladi. Zero, u fikrlovchi, ruhshunos, o'qituvchi, ya'ni tarbiyachi bo'lishi kerak.

XOREOGRAFIYA – SAN'ATNING BIR TURI

Xoreografiya nima? Ko'pchilik xoreografiya bu raqs, deb hisoblaydi yoki xoreografiya bu balet, deb o'ylaydi. Bunga faqat xalq va klassik raqslarigina kirib qolmaydi. By so'z yunoncha bo'lib, «raqsni yozaman» degan ma'noni anglatadi. Keyinchalik bu so'z bilan raqs san'atiga kiruvchi barcha narsalar atala boshlandi. Xoreografiya 3 bo'limdan iborat:

1. Xalq raqlari.
2. Klassik raqlar.
3. Bal raqlari.

Raqs – bu san'at. Har qanday san'at hayotni badiiy obrazlarda aks ettirishi lozim. Raqsda inson sezgisi, fikri, ichki kechimmalari, his-hayajonlari nutq yordamida emas, imo-ishora orqali ifoda etiladi.

Raqs insoniyat naydo bo'lishi bilan tug'ila boshlagan. Ibtidoiy jamoa tizimida insonlar til bilan gaplashmasdan, o'zining holatini harakatlari bilan ifodalaganlar. Ibtidoiy jamoa tuzimida raqs mehnat jarayonini, hayvonlar harakatini, jang holatini ifodalagan bo'lsa, quldorlik tuzimida etika, ya'ni odob-axloqni ifodalagan. Boy-badavlat odamlar o'sha paytda bo'ladigan ballarda raqsga tushishgan. Ularning raqsleri xalq raqsleri asosida mavjud bo'lgan. XVI asrda Italiyada klassik raqs paydo bo'lgan, keyinchalik u Fransiyada rivojlangan. O'sha paytda badavlat odamlar uchun, raqsler sahnalashtiruvchilar paydo bo'lgan.

Keyinchalik hayot taqozosi bilan san'atning mazmun-mohiyati o'zgargan. Shu o'rinda xoreografiyada ham yangi, mavzu, yangi qahramonlar, yangi odamlar paydo bo'ldi. Shunday raqsler tug'ildiki, u insonga shodlik, rohatlanish baxsh etdi. Masalan, lirik, qahramonona, hazil, shijoatli, ommaviy, yakka raqsler zamondoshimizning qiyofasini ochib beradi. Bir millat raqsleri boshqasidan tubdan farq qiladi. Hatto, bir viloyat raqsleri ikkinchisiga umuman o'xshamaydi. Raqsning bu xilma-xilligi qayerdan paydo bo'lgan? Bu xalqlarning fe'l-atvori, hayoti, tumush-tarzinining xilma-xilligidandir.

Raqsning eng qiyin va oliy turi **klassik baletdir**. Bu raqs xalq raqsi zaminida paydo bo'lgan. Bal raqsleri ham xalq orasida paydo bo'lgan. Polonez, mazurka, krakovek, polka, vengerka, vals, keyinchalik tango va boshqa raqsler o'zining kelib chiqishi bilan Polsha, Vengriya, Ispaniya, Germaniya, Amerika xalqlari raqsleri bilan chambarchas bog'liq. Bu raqsleri yaratish o'z kasbining ustasi — baletmeysterdan katta mehnat talab qiladi.

BALETMEYSTER

“Baletmeyster” so'zi “balet ustasi” degan ma'noni anglatadi. Baletmeyster opera-balet teatrida, musiqali komediyada, estrada, klassik va xalq jamoalarida ish olib boradi. Ba'zi baletmeysterlar katta-katta baletlar yaratadilar, boshqalari ularni mashq qildirish bilan shug'ullanadi.

Baletmeysterlik ish faoliyati 4 turga bo'linadi:

1. Baletmeyster — yaratuvchi.
2. Baletmeyster — sahnalashtiruvchi.
3. Baletmeyster — mashq qildiruvchi.
4. Baletmeyster — murabbiy, o'qituvchi.

Ulardan birinchisi, xoreografik asar yaratadi, uni musiqali asar yaratuvchi kompozitorga tenglashtirish mumkin. Lekin u musiqali obraz yaratasa, baletmeyster o'z tasavvurlarini ifodalash uchun harakatlari va imo-ishoralar yaratadi. Masalan, Jizel, Mariya, Zarema, Zulhra kabi bu qiyofalarni qo'l holatlari, gavda harakatlari orqali yaratganlar.

Xoreografik obrazlarni yaratish bilan baletmeyster rejissyordan farq qiladi. Shu bilan birga, dramaturgiya bilan duch keladi. Shuning uchun xuddi rejissyordek fikrlovchi, faylasuf, ruhshunos, tarbiyachi bo'lishi kerak.

BALETMEYSTER-YARATUVCHI, BALET MUALLIFI HISOBLANADI

Baletmeyster — xoreografik mahning yaratuvchisidir. Keyin uning sahnalashtiruvchisi ham bo'lishi mumkin. Masalan, Mukarrama Turgunboeva yaratgan, M. Ergasheva sahnalashtirgan yoki M. Ergasheva yaratgan va sahnalashtirgan. Baletmeyster yaratuvchi raqslarni o'tirib yaratadi, deb bo'lmaydi yoki og'zaki ko'rsatadi, deb bo'lmaydi. Bu mehdagiylar jismoniy zo'rqiadilar, aqliy mehnat qiladilar. Baletmeyster raqslarni qo'yishi, o'yab topishi kerak, ko'rsatib berishi kerak, agar ijrochi qubul qila olmasa, qayta-qayta ko'rsatib berishi kerak.

BALETMEYSTER-SAHNALASHTIRUVCHI

Baletmeyster-sahnalashtiruvchi yaratilgan asarni ijrochilarga qo'yib beradi. Demak u raqslarni yoki baletni yaratadi, sahnalashtiruvchi ijrochilarga buni ko'rsatadi. Ko'pincha bu ikki xil baletmeyster bir odamda mujassamlashadi. Lekin kimdir yaratilgan, sahnalashtirilgan raqslarni mashq qildirish kerak. Bu ishni baletmeyster-yaratuvchi qilisa ham bo'ladir, lekin gohida buni boshqa mutaxassisga — baletmeyster mashq qildiruvchiga buyuriladi. Bu kasbdagiylar har bir teatrida, jamoada bor. Mashq qildiruvchi avvalgi o'ynalgan raqsleri mashq qildiradi, ularni yangi ijrochilarni kiritadi. Uning vazifasi — yakka, ommaviy raqsleri me'yoriga yetkazib, yuqori saviyada ko'rsatish. Baletmeyster-o'qituvchining vazifasi xoreografiya sohasida yangi

kadrlar yaratish. O'quvchilarga raqs asoslarini, bajarish uslublarini, aniq va to'g'ri ko'rsatishni o'rgatadi, qobiliyatlarini o'stiradi, mahoratlari oshiradi. Baletmeysterning yangi asar yaratishdagi o'rni va ahamiyati quyidagi 5 bo'g'inda yaqqol ko'rinadi. Ular bir-biridan ajralmasdir. Lekin ularning har biri mustaqil, murakkab ijodiy faoliyatdir. Birinchi bo'g'in – maqsadning paydo bo'lishi. (Baletmeysterda, dramaturgda mavzuning hosil bo'lishi, voqeaning joyi, vaqti, xarakteri aniqlanadi, qahramonga tavsiyanoma beriladi). Ikkinchi bo'g'in – kompozitsion dastur yoki musiqali xoreografik ssenariy tuziladi. Bu baletmeyster-kompozitor uchun tuziladi. Asar kompozitsiyasini tuzishdan oldin katta tayyorgarlik ishini olib boradi: kerakli ma'lumotlarni yig'adi, ekspeditsiyalarga borishi mumkin.

Kompozitor kompozitsion dastur asosida musiqani yaratishga kirishadi. Bu jarayonda baletmeyster bilan maslahatlashib turadi. Uchinchi bo'g'inda musiqaga yaratiladi. Musiqaga baletmeysterning qo'lga kelgandan sung unga mos harakatlari yaratiladi.

To'rtinchi bo'g'inga raqsni yaratish kiradi. Bunga yakka raqs, ommaviy ko'rinishlar, bezatishlar, liboslar, yoritishlar kiradi. Raqlarni yaratishda jo'rchilar bilan ishlanadi.

Ular baletmeysteri yangi musiqaga bilan tanishtiradi, shu asosida u o'ziga dastur tayyorlab oladi. Sekin-asla baletmeyster yakka va ommaviy raqlarni, ko'rinishlarni xayolida yaratadi. Bu bilan asarning ekspozitsiyasini – kirish qismini yozib beradi.

Beshinchi bo'g'in – asarni sahnalashtirish mashq zaliga ko'chadi. Yakkaxonlarga ularning harakterlarini ko'rsatib, o'rgatadi. Bu bo'g'indagi yakuniy bosqich sahna bezagini, liboslarini namoyish qilish bilan tugallanadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, baletmeyster bo'lish uchun maxsus xoreografiya bilimlarigina yetarli emas, bu kasbga iqtidor, qobiliyat, musiqa eshitish qobiliyati, xotira qobiliyati bo'lishi kerak. Raqs tasviri, liboslarining xilma-xilligi, bezaklar xoreografiyada katta ahamiyatga ega, shuning uchun baletmeysterga tasviriyl san'atni bilish zarur. U ijodiy jamoasining tashkilotchisidir. U faqat badiiy jihatdan emas, balki ma'naviy jihatdan ham tarbiyachidir. Zamonaviy rahbar faqat ijodiy faoliyatidagina emas, balki jamiyatda ham ilg'or inson bo'lishi kerak.

RAQS JAMOASI RAHBARINING IJROCHILAR BILAN ISHLASH USLUBI

Raqs yaratilgandan va sahnalashtirilgandan so'ng tomoshabingalarga ijrochilar orqali havola qilinadi. Bu davrda baletmeysterning vazifasi mashq qildirish bo'ladi. Buning uchun unda ustozlik, o'qituvchilik mahorati bo'lish kerak. Ommaviy raqslar ijrochilarning har biriga alohida yo'l topishi kerak, raqsda o'z imkoniyatlarini ko'rsatishda yordam berishi kerak, ularning ijro mahoratlarinigina emas, aktyorlik mahoratini ham yuzaga chiqarish kerak. Ularni bir maqsadga yo'naltirish kerak, ijrochilarning 2 turi bor: o'ylaydigan va o'ylamaydiganlar. Raqs sahnalashtiruvchiga fikrlovchi ijrochilarning ko'zlarini doim «nimaga?», «nima uchun?», «kim uchun bu raqsni ijro etyapman?», degan savolni berib turadi. Agar ijrochi tomonidan ijro etilayotgan raqs maqsadsiz bo'lsa, shunchaki bo'lsa, shunchaki harakatlari, holatlar yig'indisiga aylanib qoladi. Bunda faqat baletmeystergina emas, ijrochi ham aybdor bo'ladi. O'ylab fikrlovchi ijrochi bu raqsni ijro etishga rozi bo'lmaydi. Fikrlamaydigan ijrochi esa unga o'zini, qobiliyatini ko'rsatsa bo'ldi. Xoreografiyaning birinchi vazifasi – bu raqs tasvirini, matnini ifodaligi, aniq ijro etish. Sabr-qanoat bilan mashq vaqtida har bir qadamni, har bir taktni ishlashdan iborat. Bu ikki yo'l bilan:

1. Ijrochiga raqs tasvirini va matnini ko'rsatish.
2. So'z bilan tushuntirish, ya'ni sahnalashtiruvchi harakatlarning nomini aytib, ijro uslublarini tushuntirish.

Baletmeyster faqat sahnalashtirish va mashq qildirish bilan cheklanib qolishi mumkin emas. U albatta o'qituvchi ham bo'lishi kerak. Kichik jamoalarda baletmeysterga ham sahnalashtiruvchi, mashq qildiruvchi, ham o'qituvchilik vazifasini bajarishga to'g'ri keladi.

Baletmeyster-mashq qildiruvchi raqsning ayrim holat, harakatlari ishlaydi. Bir raqs harakatlari ijro etish harakati jihatidan ikkinchisining o'xshamasligi kerak.

Biror raqsda yangi ijrochini qo'yganda ko'pchilik rahbarlar oldin ijro etgan raqosaning ijro uslubini o'rgatmoqchi bo'ladi. Bunda endi ijodini boshlayotgan raqosa taqlid qilishni o'rganadi. Raqosa o'ziga

xoslikni yo'qotadi. Yoshlarning xatolarini tuzatib, to'g'ri yo'lga yo'naltirishi kerak. Rahbarning bunday o'ylab ish yuritishi jamoaning sog'lom va ahil bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

RAQS KOMPOZITSIYASI

Raqs kompozitsiyasi bir nechta qismlardan tashkil topadi.

Unga: dramaturgiya (mazmuni), musiqa, matn (harakat, holat, ifoda vositasi), raqs tasviri (ijrochilarning sahnadagi harakati) kiradi. Bularning hammasi qahramonning ruhiy holatini, asar mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

Kompozitsiya raqs harakatlarning majmuidir.

Dramatik asarning asosiy tuzilish qonuni sujeti raqsar kabi sujetsiz raqsarlarda ham mavjud, chunki ularda ham mavzu, insonning u yoki bu holatini (shodlik, g'am, sevgi, rashk, g'azab va boshqalar) ifodalaydi.

Bu qonunga asoslanib, raqs 5 talabga javob berishi lozim.

1. Ekspozitsiya aniq, cho'zilmagan bo'lishi kerak.
2. Tugun aniq, tushunarli bo'lishi kerak.
3. Voqeaning rivojlanishi (avjdan oldingi pog'onalar) ham o'sib boruvchi, kuchli, eng uzun qism.
4. Avj — tugundagidek yorqin, taassurotli, raqsning haqiqiy cho'qqisi yoki qisqa va eng qiziqarli qism.
5. Yechim — raqs voqneasining borishi jarayonida tayyorlangan bo'ladi, lekin to'satdan raqsdagi hamma taassurotlarga zid holat sodir bo'lishi mumkin.


Kompozitsiya qonunlarini bilish va ulardan to'g'ri foydalanish — baletmeyster ijodida eng qiyin bosqichdir, hech qanday raqs biror qolipda yaratilmaydi. Har qanday mavzu o'zining alohida ko'rinishini ifodalaydi. Qobiliyatli yaratuvchining tajriba, xoreografiya mahoratiga bog'liq holda raqs asarining takrorlanmas, yorqin ko'rinishini paydo qiladi.

Ekspozitsiya — bu voqega kirish. Bunda tomoshabin asar qahramonlari bilan tanishadi, musiqani eshitadi, raqosalarni ko'rib, ularning millati, yashash davri tushunarli bo'ladi, ya'ni raqs xalq

raqsimi, folklorini, klassikini, ommaviyini, yakka raqsimi va hokazo. Raqs jamri juda xilma-xil. Ekspozitsiyadan shu narsa ma'lum bo'ladi.

Tugunda sahnaga chiquvchilar ma'lum raqs tasviri bo'yicha joylashadilar (to'g'ri chiziq, diagonal, yarim doira va hokazo). Ular asta-sekin qiyin harakatlarni bajarib, tomoshabinlarga qiziqish uyg'otadilar. Keyin nima bo'ladi? degan savol paydo bo'ladi. Asar qahramonlarining xislatlari asta-sekin namoyon bo'ladi.

Raqs rivoji haqida (avjdan oldingi pog'onalar). Bu qismda tugun qismdagidek asarning mazmuni va fikri aniqlanadi. Bu qismning faqat yuqoriga qarab rivojlanishi shart emas, chekinishlar, orgaga qaytishlar yuqoriga ko'tarilish uchun zamin yaratadi. Bu jarayon quydagicha aks etishi mumkin.



1-rasm

Avj haqida. Bu musiqali xoreografik voqeaning yuqori cho'qqisi. Bu cho'qqini ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji tayyorlab beradi. Harakatlari, holatlari, ifoda vositalari raqs tasviri uning mantiqiy tuzilishi bilan bu cho'qqiga keladi. Avj faqat matn va raqs tasvirlardan tashkil topishi mumkin. Bunga klassik baletdagi yoki raqsarlardagi charxlar, egilishlar va boshqa harakatlarni misol qilish mumkin.

Yechim haqida. Bu qism raqs voqneasining mantliqan rivojlanishidan kelib chiqadi. Yechim fikrni tugallashi kerak, oxirgi, aniq nuqtasini qo'yish kerak. Gohida kutilmaganda to'xtab qolishlar ham yechim deb ataladi. Lekin bu noto'g'ri. Agar asarda mantliqan rivojlanish tayyorlanmagan ekan, yechimda raqs mazmuni yechildi, deb hisoblab bo'lmaydi. Oddiy misolni olaylik: agar ijrochilar milliy o'zbek libosini kiyib, sahnaga chiqishsa va doira shaklida (yoki diagonal) oddiy qadam bilan yurishsa, keyin bitta to'g'ri chiziqqa turishsa — bu ekspozitsiya bo'ladi. Keyin qiyin harakatlarni ko'ramiz, bu tugun. Keyin nima bo'lishi

biz uchun qiziq. Mana, raqs ohangi tezlashmoqda, ijrochilar goh aylanadi, goh bir-birlari bilan joy almashadilar va zanjir shakllarini hosil qiladilar. Bu vogueaning rivojlanishi va birdan yorqin, kutilmagan kompozitsiya paydo bo'ladi. Bir ijrochi yakka o'rta chiqib, charx, shoh harakatlarini ijro etadi. Biz buni takror-takror ko'rgimiz keladi. Lekin avj o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqanda uziladi. Bir ijrochi o'zining qo'lini sherigiga beradi va sahna oldiga olib keladi. Qolgan ijrochilar shiddatli harakatlardan ular orqasidan keladilar.

Raqs dramaturgiyasi 5 ta bo'limdan iborat. Bularni bilish bilan birga, qo'llay olish ham kerak. Buni faqat amaliy ishda, raqs sahnalashtirishda, uni tahlil qilishda o'rganiladi. Tahlil biz uchun juda kerak. Gohida yolg'on tugun, avj yoki yechimga uchrab qolamiz. Bu xatoni qilmaslik tajribasiz baletmeyster uchun mushkul.

MUSIQQA HAQIDA

Agar raqs kompozitsiyasida birinchi o'rinda dramaturgiya bo'lsa, ikkinchi o'rinda musiqadir. «Raqs – bu simfonya», – degan edi Chaykovskiy. Musiqaga va raqs – opa-uka, ular umumiy qoidalar bilan yashaydilar. Raqs va musiqaning qo'shilishi ajoyib san'atdir. Musiqaga tarixiga nazar solsak, asosiy ko'p sonatalar, syutalar, hattoki simfonyalar raqs musiqasidan iborat bo'lishini ko'ramiz. Hozirgi kompozitorlar ham buni unutganlari yo'q. Musiqaga ham dramaturgiya qoidalariga asosan tuziladi, ya'ni ekspozitsiya, tugun, vogueaning rivojlanishi, avj, yechimdan iborat bo'ladi. Har bir raqs bunga bo'ysumasdan iloji yo'q.

RAQS MATNI


Insoniyat tarixi, mamlakatning tabiati inson qalbida aks etib, so'z bilan ifodalanadi. Inson yo'qolib ketadi, ular yaratib ketgan so'zlar abadiy yashaydi va yo'qolmaydi. Xalq tili insonning fikri, sezgisining mahsulidir. Shu bois yil hech qachon yo'qolmaydi.

Til orqali xalq tarixi, yurt tabiati namoyon bo'lgan. Bu albatta xoreografiyaning rivojlanish tarixiga ham bog'liq. Ibtidoiy jamoa davrida odamlar o'z sezgi, fikrlarini tovush, harakat bilan ifodalaganlar. Bundan ming yillar oldin raqslar paydo bo'lgan. Turli millatlar

bir-birlaridan farq qilganidek, raqslari ham farq qiladi. Lekin ularning hammasi inson tanasining ifodasini, imo-ishorasini ifodalaydi. Til – bu vosita, buning yordamida nutq paydo bo'ladi. Xoreografiyada ham shunday, har bir xalq raqs tili bilan raqs nutqini hosil qiladi. Nutqda o'zining fikrini, sezgisini, kechimmalarini ifodalaydi. Baletmeysterlar raqs tili vositasida xayoliy asar mazmunini ifodalaydi. Til – vosita bo'lsa, nutq – maqsad. Raqs tili bor joyda raqs nutqi ham bo'ladi. Balet qahramonlari raqs tilidir, bular orqali balet mazmunini ifodalanganadi. Qiyofalar, obrazlar, ularning qilinishlari ochib beriladi. Bu xoreografiya, raqs nutqini baletning yoki raqsning matni deb ataymiz. Balet teatrning eng yuqori ko'rinishi – raqs nutqi, ya'ni librettioni o'qib bermasdan tushunarli bo'lgan baletlardir. Ming afsuski, hozirgi davrda hech qanday mazmunga ega bo'lmagan oddiy raqslar ko'payib bormoqda.

RAQS TASVIRI


Raqs tasviri – ijrochilarning sahnadagi joylashuvi yoki bir guruh ijrochilarning sahnadagi izlari. Geometrik shakllarsiz xalq raqslarida ham, sahnada ham raqs yo'q. Biz raqslarda quyidagi shakllardan foydalanamiz: aylana, parallel chiziqlar, diagonal, to'rtburchak, uchburchak, trapetsiya, spiral, yarim aylana, konus va hokazolar.



Bu shakl raqsda tez-tez ishlatiladi, xalq raqsida ham, bu holatda strellkaning uchi yo'nalish tomonini aniqlaydi va uning oxirgi manzilini ko'rsatadi. I belgisi – harakatning boshlanishi, tayyorlovchi holat diagonalidan juda ko'p harakatlarni bajarish qulay.

Masalan: charxlar.

Doira



3-rasm

Doira shaklidagi raqslarning tarixi juda qadimga borib taqaladi. Ilgari doira shaklida quyoshni tasvirlashgan. Bu tasvir hozir ham har bir millat raqsida keng tarqalgan: rus xorovodida, ukrain gopaktida, Belarus, Moldaviya, Kavkaz xalqlarida, Sharq, Yevropa va boshqa mamlakatlarda ishlatiladi. Professional raqs san'atida, klassik baletlarda, ayniqsa, variatsiyalarda juda ko'p qo'llaniladi.



4-rasm


5-rasm

6-rasm

7-rasm

1. To'g'ri chiziq (yuqoridan pastga 4-rasm).
2. To'g'ri chiziq (pastdan yuqoriga 5-rasm).
3. To'g'ri chiziq (o'ngdan chapga 6-rasm).
4. To'g'ri chiziq (chapdan o'ngga 7-rasm).

Bu raqs tasvirini ko'ramiz:



8-rasm

Bu sxema 8 kombinatsiyadan iborat bo'lib, esda saqlash uchun chizilgan har bir kombinatsiyaning tartib raqami bilan chap yuqori burchakka yozish qulay. Raqs tasviri ikki xil bo'ladi: oddiy va murakkab.

Oddiy raqs tasviri bitta raqs tasviridan iborat bo'ladi. Murakkab raqs tasviri esa ikki va undan ortiq raqs tasviridan iborat bo'ladi.



Oddiy raqs tasviri

Murakkab raqs tasviri

9-rasm


SAHNA REJASI

Yuqori chap burchak	Sahna organi	Yuqori o'ng burchak
– Chap kulislar	O Sahna markazi	O'ng kulislar
Pastki chap burchak	(Avanssena)	Pastki o'ng burchak

Sharti belgilar

I – qizlarning asosiy holatlari.
D – qizlarning harakatdagi holati.

Harakat yo'nalishi



Xalq raqslarida, klassik baletlarda va estrada konsertlarida raqosaning shiddat bilan uchgandek, suzgandek bo'lib, bizga tomon kelishini ko'ramiz, gohida yon bilan, gohida orqa tomon bilan keladi. Rakurs – tomoshabin tomonidan raqosaning anfas, kruaze, effase, 1, 2, 3, 4, arabeskal holatida turishidir. Baletmeyster rakurstan foydalanishini bilsa, raqslar qiziqarli chiqadi.

Biz yuqorida raqs kompozitsiyasining hamma bo'linlarini ko'rib chiqdik. Kompozitsiyani toki artist yoki ijrochi ijro etmaguncha u jonsioz holatda bo'ladi. Fikt, sezgi, inson kechinnalari, uning faoliyati, turli harakatidan qahramonlar, aktyorlar ijrosida jonlanadi. Baletmeysterning ijodi davrida tug'iladi, xoreografik qiyofalar ustida fikrlash oxir oqibatda yorqin, ma'noli raqslar paydo bo'lishiga olib keladi. Ijrochi o'z navbatida, xoreografik matn olgandan so'ng, aktyorlik vazifasini tushunib yetgandan keyin, o'ziga xos ichki shaklini yaratadi. Raqsga aylantiradi. Baletmeysterning raqs yaratishdagi ichki kechinmasi mavzuning manbalari bilan tanishgandan so'ng, u xoh adabiy, xoh musiqali, xoh xoreografik bo'lsin, yuzaga chiqqa boshlaydi. Uning boshlanishi, rivojlanishi, obrazlarda go'zal ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bu ish musiqaga jo'rligida amalga oshiriladi. Jo'rchi bilan ishlash magnitofon bilan ishlashdan qulay. Chunki u bilan maslahatlashish, musiqani tahlil qilish mumkin. Baletmeysterning ish xonasida albatta ko'zgu bo'lishi kerak. Holatlar, harakatlar, yuz ifodasi ko'zgu yordamida tekshiriladi. Baletmeyster sekin-asta avvalgi harakatlarni, holatlarni, gohida butun kombinatsiyani mashq qila boshlaydi. U hammasini ijro etishi kerak: erakkecha harakatlarni ham, ayollar harakatlarni ham, yakka, ommaviy raqsni ham. Fikrlash jarayonida avval xayolan, so'ngira amalda raqsga tushadi. Ba'zi baletmeyster musiqani yaxshi biladi va raqsni ijrochi bilan birga ish xonasida sahnalashtiradi. Bu ish uni ruhlantiradi va tajribasini oshiradi. U yaratgan asarlari juda ajoyib chiqadi. Shunday hollar bo'ladi, ijrochi o'zicha turli harakatlarni topishni taklif etadi. Bu paytda ijrochi mualliflikka sherik bo'ladi. Gohida bosh

RAKURS HAQIDA

baletmeysterdan ko'ra ijrochi xalq raqslarini yaxshi biladi. Shunda baletmeyster bu harakatlarni asosida o'zining kompozitsiyasini tuzadi.

MIMIKA (YUZ IFODASI) HAQIDA

Tomoshabin oldida yurakdagi barcha harakatlarni namoyon etuvchi – ijrochi turadi, u inson olamining nozik tomonlarini ifodalab beradi. Mimika – alohida ahamiyatga ega. Mimika bo'lmasa, aktyorlik mahorati bo'lmaydi. Bu xususiyat tug'ma bo'lmasa, o'quvchilarning yuz ifodasini rivojlantirish kerak.

Egilluvchanligini, qo'l mayinligini, bo'lgusi ijrochining yuziga e'tiborsiz bo'lmalikni qanday amalga oshirish mumkin? Mimikani rivojlantirish u mashqlarning alohida turlari bilan shug'ullanish kerak. Mimika boshqa bo'limlar singari matnga mansub.

VARIATSIYA – YAKKA RAQS

Balet spektakllarida, raqslarda variatsiya raqsning avj qismida yigit yoki qizning yakka ijrosida namoyon bo'ladi. Yakka ijro etuvchilar raqsni yaxshi bilishlari kerak, texnik qobiliyatlari yuqori bo'lishi kerak, bundan tashqari, yuqori aktyorlik mahorati bo'lishi shart.

DUET

Duet deb ikki ijrochi ijrosidagi raqsga aytiladi. Duet uch turga bo'linadi. Birinchi turi – har bir ijrochiga alohida kombinatsiya beriladi. Bir xil jinsdagilar ijro etadi. Ikkinchi turi – erkak va ayol raqslari. U aniq, ma'lum mavzuda sahnalashtirilgan bo'ladi. Masalan, sevgi, g'azab, shodlik, uchrashuv, ayriliq azobi va boshqalar. Bu ikki qiyofa bu holda o'zlarining ichki kechimmalarini, his-hayajonlarini, munosabatlarini ifodalaydilar. Uchinchi turi – dialog raqs hisoblanib, bu tur oliy turdir. Har bir qahramon o'z mavzusiga ega. Bu ikki mavzudan bitta umumiylik hosil bo'ladi yoki birinchi ustidan ikkinchisi g'olib keladi. Duet bir qahramonning o'limi bilan tugashi mumkin.

UCHLIK (TRIO)

Uch kishilik ijro – uchlik (trio) deb ataladi. Uch ayol uchun, uch erkak uchun, ikki ayol bir erkak uchun, ikki erkak bir ayol uchun mo'ljallangan bo'ladi.

KVARTET

To'rtta ijrochi ijrosidagi raqs – kvartet deyiladi. To'rtta ayol uchun, to'rtta erkak uchun, ikkita ayol, ikkita erkak uchun, uchta erkak, bitta ayol uchun, uchta ayol bitta erkak uchun mo'ljallangan bo'ladi.

OMMAVIY RAQS

Raqsning murakkab ko'rinishlaridan biri ommaviy raqsdir. Ba'zilar ommaviy raqs ishtirokchilari faqat bir xil, bir vaqtda harakatlarni bir xil bajarsa bas, deb o'ylaydilar. Jamoa raqs tasvirini aniq berish kerak, uslub, manerasini ham yaqqol ko'rsatish kerak. Agar yakkaxon harakatlarning o'lchamiga ahamiyat bermasa, ommaviy ijrochilar har bir sakrashning balandligini, harakatlarning o'lchamlarini yo'qotib qo'yishi mumkin. Ular aylanish tezligini, chiziqlarni aniq ushlashlari lozim. Sezgilari yuqori bo'lishi kerak. Ommaviy raqsning rivojlanishi uning mazmuniga, matniga bog'liq.

BALETMEYSTER – JAMOANING IJODIY TASHKILOTCHISIDIR

Baletmeyster ijodiy ishinining eng muhim qismi nimada? Deylik, siz bir madaniyat uyiga baletmeyster qilib tayinlandingiz. Rahbaringiz bilan tanishganingizdan so'ng jamoa bilan tanishishni orziquib kutasiz. Yaxshi ijrochilar bormikin? degan savol tug'iladi. O'zingiz qo'yadigan raqsingiz haqida gapirishingizdan oldin ularning sonini bilishingiz kerak. O'ylagan raqsingizga qaysi ijrochi mos keladi – shuni aniqlab olishingiz kerak. Mashqlar jarayonida kuzatasiz.

Baletmeysterga faqat qobiliyat, mehnatsevarlikning o'zi yetmaydi. U tabiiyati, bosiq, odamlar bilan muomalani biladigan, xushmuomala bo'lishi kerak. Chunki katta jamoadagi odamlarning fe'llari turlicha. Ijrochilar qattiq hayajonda bo'ladilar. Asabiy holat yuzaga keladi. Busiz ijodiy jarayon bo'lishi mumkin emas. Shu sababli arziyagan narsaga ziddiyatlar, tortishuvlar paydo bo'ladi. Buning uchun o'zaro hurmat, muloyimlik, ehtiyojkorlik kabi fazilatlar ega bo'lishi kerak. Rahbar odam kalondimog', yengil tabiatli, yolg'onchi, qo'pol bo'lmag'li kerak. Katta qobiliyat, o'tkir aql, toza vijdon, adolatli bo'lish faqat muvaffaqiyat olib keladi.

BALET ARTISTI

Balet artisti bo'lish juda qiyin, murakkab, ko'p mehnat talab qiladigan kasbdir. Hech qaysi artisti sahnada bunchalik ko'p jismoniy kuch ishlamaydi. Biz "artist" deganda faqat biror rolni o'ynagan san'atkorigina emas, balki musiqachi, qo'shiqchi, estrada ijrochisini ham tushunamiz. Ularning har biri o'zining ijro etayotgan janriga ko'ra ma'lum xususiyatga ega bo'ladi. Masalan, birida nutq yaxshi bo'lsa, ikkinchisida ovoz kuchli bo'ladi, boshqasi garmonal rivojlanish mashqlari orqali chinig'gan badan – gavdaga ega bo'ladi.

Lekin bularning hammasida tomoshabin artisti bilan badiiy obrazlar vositasida munosabatda bo'ladi. Agar shu narsalar bo'lmasa, artist ham yo'q. Balet artisti – bu ham mohir, usta rassom, ham obraz yaratuvchi. Ular yakkaxon yoki ommaviy sahnalarda o'ynashidan qat'iy nazar, baletmeysterning topshirig'ini ko'r-ko'rona bajarib qolmay, balki obrazning yaratuvchisi bo'lishi kerak. Lekin af'suski, ba'zi ijrochilar raqsni shunchaki ijro etadilar. Bu hol ommaviy raqslardagina emas, yakkaxon raqslarda ham ro'y beradi. Tomoshabinlar bundan qoniqish hosil qilmaydilar. Ketgan vaqlariga achinadilar.

Balet artisti raqs orqali tirik inson obrazini yaratishi kerak. Chunki baletmeyster unga o'zi yaratganlarini so'zlab beradi, ko'rsatib beradi. Tomoshabin bular bilan ijrochi orqali tanishadi. Shuning uchun artistning fidoiyligi, ijodga munosabati qay darajadali katta ahamiyatga ega. Qobiliyati artisti o'zining yaxshi ijrosi bilan o'z

obro'sini oshiradi yoki aksincha bo'ladi. Balet artistining ijodi nimadan iborat? Bu shundan iborat-ki, o'z qahramonining ichki kechimmalarini inson nutqi bilan emas, tana harakatlari orqali, turli holatlar, yuz-mimikasi orqali ifodalaydi. Raqsning o'zi bu yerda – nutq. Masalan, sozanda o'zining sozi bilan kuy yaratsa, balet artisti-ning o'zi ham soz, ham sozandadir.

Klassik raqs bilan shug'ullanishni, odatda, yoshlikdan boshlaydilar, chunki suyaklar qotib qolmagan bo'ladi va balet talablariga moslab rivojlantiriladi. Pianinochi va skripkachilar esa ulardan ham ertaroq boshlaydilar. Sirk artistlari o'z farzandlarini uch yoshidan shug'ullantira boshlaydilar. Biz bilimizki, klassik raqs bilan 9-12 yoshlardan shug'ullangan ma'qul. Bu qonun, lekin bunda istisnolar ham bo'ladi. Gohida tanada shunday ajoyib imkoniyatlar bo'ladiki, kattaroq yoshdan shug'ullanib, ajoyib yutuqlarga erishganlar ham bo'lgan. Gohida professional san'atkor havaskor artistlardan yetishib chiqadi. Bu hol dramada, operada, estradada, sirkda va baleida ham bo'ladi. Raqqosa – artist bo'lish uchun kishi ruhiy va jismoniy jihatdan sog'lom, chidamli va gavdasi to'g'ri shakllangan bo'lishi kerak. Agar inson usuni sezish qobiliyatidan mahrum bo'lsa, buni sekin-asta doimiy mashqlar orqali shakllantirish mumkin. Aks holda musiqa va raqs bir maromda ketmaydi. Bundan tashqari, artist musiqiy va ko'z bilan eslab qolish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Balet artisti faqat harakatning musiqasinigina emas, unga parallel ravishda harakatni ham eslab qolishi kerak. Albatta bular bir-biriga yordam beradi: musiqa raqsni o'zlashitirishga, harakat, obrazlar va raqs harakatlari esa musiqa ohangini eslab qolishga yordam beradi. Ba'zi balet artistlari o'zlarining raqslarini butun umr eslaydilar. Bular yordamida ba'zida raqs larini qayta tiklashga erishish mumkin.

RAQS TEXNIKASI

Texnika nima? Bunda hamma harakatlarni yillar davomida bajarish olish bilimlari o'rganiladi. Lekin texnikaning kuchli bo'lishining o'ziga sahnada ajoyib rollar yaratishga asos bo'la olmaydi. Bundan

tashqari, yana artist ham bo'lish kerak, ya'ni obraz yarata bilish kerak. Buning uchun aktyorlik mahoratini mukammal egallash kerak.

Ichki texnika nima? Eng avvalo, o'z fikrlarini, sezgirlarini boshqara bilish, ular orqali turli harakatlar qilishning o'zi hech narsani anglatmaydi. Bu holat san'atga qachon tegishli bo'ladi, qachonki, insonning ichki sezgisi – shodlik, baxt, mag'rurlik va boshqa xislatlar bilan yo'g'irlisagina balet musiqasi artistiga ichki kechimmalar bilan raqsda tushishga yordam beradi.

Raqsdan hayajonning bo'lishi yaxshimi yoki yomonmi? Kishida hayajon, qo'rquv bo'lsa, bu artistni jismoniy, ruhiy kuchdan mahrum qiladi. Oyoqlari bukilib, tizzalari bo'shashib qoladi, uning yuzlari qo'rquvdan oqarib tursa, raqs haqida gapirish kerak ham emas. Obrazilarni namoyon qilish oxirgi o'ranga o'tib qoladi. Kuchli hayajon bo'lishiga 2 ta sabab bo'lishi mumkin: birinchisi, raqsda yaxshi tay-yorgarlik ko'rmaganligi, imkon darajasida emasligi; ikkinchi sabab, asab tizimining yomonligidir. Baletmeyster shunda qanday yordam berishi kerak? Uni dadili bo'lishga, ko'proq ishlashga majbur qilish kerak. Asabni darhol davolash kerak. Artistlarning har biriga alohida yondoshish kerak. Ular ish bilan mashg'ul bo'lganda dag'allik, qo'pol muomalada bo'lish mumkin emas. Lekin qat'iy tartibga amal qilish shart.

Shuning uchun baletmeyster faqat asar yaratuvchigina emas, balki jamoaning ishini tashkili etuvchi asosiy shaxsdir.

BALET SPEKTRAKLIDA OBRAZ

Obraz – insonning asl fe'i va bunga uni o'rab turganlar bilan munosabati. Fiziolog olim Pavlov aytishicha, insonning asosiy refleksisi – faollik refleksidir.

Insonning fe'i-atvori nima? Masalan: oilada go'dak tug'insa, unga baqirib muomila qilinsa, bola qo'pol qulog'siz bo'lib o'sadi, oilada bolaga baqirmasdan, muloyim muomila qilinsa, go'dak xushmuomala bo'lib o'sadi. Shu bilan bolaning fe'i shakllanadi. Lekin faqat oilada emas, bog'chada, maktabda o'qituvchilar ham bolaga turlicha yaxshi ta'sir ko'rsatadilar, so'ng talabalik va ish faoliyatida uning fe'i shakllanishi tugaydi. Lekin kichik go'dakda

tug'ma xislatlar ham bo'ladi, ular kelajakda rivojlanadi. Agar artist obrazining takrorlanmas, o'ziga xos fe'i-atvori yaxshi o'rgansa va baletmeyster bergan topshiriqlarni to'la bajarsa, albatta bu obrazni sahnada to'laqonli va ajoyib qilib ko'rsata oladi.

BAL RAQSLARINI SAHNALASHTIRISH

Xoreografiyaga bal raqslari ham kiradi, shuning uchun bunga e'tibor berishimiz kerak. Birinchi bal raqslari Pyotr I paytida bo'lgan va bu yerda boshqa millat raqslari ham ijro etilar edi. Shuning uchun boshqa joydan raqs ustalari kelib o'rgatishgan. Har bir davr o'zining ommabop raqslari bo'lgan. XVIII asrda «Menuet gavot» Fransiya ko'chalarida – maydonlarda xalq raqsiga tushgan frondola. O'tgan asrda raqs zaliga vals polka, galop kirib keldi. Valsning bal ko'rinishi yaratilgani uchun valsi deb yuritiladi. Bu musiqani Shtraus yozgan. Hozirgi kunda uni hamma sevil o'ynaydi. Ballar o'tgan asrda rivojlangan edi: unda menuet, gavet, kontdans, mazurka, polonez, krakovyak, vengetka raqslari ijro etilgan. Keyinchalik «Tango», «Fokstrot» kabi raqs turlari paydo bo'ldi. Afsuski, maktablarda raqs darslari o'tilmaydi, vaholanki, yoshlarning bal raqslari ularga tarbiyaviy tomondan yordam beradi. Yoshligidan bu raqslarni o'ynagan kishi, keyinchalik raqsda murojat qilsa, go'zal, jozibador qilib ijro olmaydi. Bal raqslarini rivojlantirish bizning majburiyatlarimiz. Bal raqslari bilan shug'ullangan bolalar go'zal xislatlarga, muloyim murojaatga, salomlashish odatiga, chiroyli yurishga, jamiyatda, ko'pchilik orasida yaxshi xulqqa ega bo'ladi. Ko'pchilik bolalar qornini chiqarib, maymoqlanib, bukeyayib yuradilar, bo'lar butun umr saqlanib qolish mumkin. Yoshlikda badan yumshoq va egiluvchan bo'ladi. Shuning uchun yoshlikdan badanning kuchli va chiroyli tarbiyasi ruhiy va jismoniy go'zal insonni shakllantiradi. Raqs insonga sog'liqlik keltadi, deb bekorga aytishmagan.

O'ZBEK MILLIY RAQSLARIDAN «BAYOT» RAQSINI SAHNALASHTIRISH

"Bayot" — Toshkentcha raqsdir, u juda yengil va oson harakatlardan iborat. Bir maromdagi yurishlar vositasida yoshlarga xos shodlik, quvnoqlik, tetiklik tarannum etiladi.

Libos:

To'rtburchak do'ppi, cheti gora duxoba bilan tikiladi. Xonatlardan ko'ylak uzun, etagi keng, yengi uzun va keng qizil duxobadan kalta nimcha, sariq zardan naqsh tikilgan, belidan past, tag qismi kengaygan yoqasi tikka. Yoqaga tugmalanadi. Jiyaki uzun lozim.

HARAKATLAR

1-qism Xalq cholg'u ansambli ijrosida.

№1 (6 takt) №2 musiqa (34 takt), musiqa o'Ichami 2/4. 6 takt.

Musiqaning boshlanish qismi

1-14-
taktlar

Chiqish. Ijrochilar bir-birlarining orgalaridan chap tomondagi oxirgi parda orqasidan yon tomonlari bilan yurib, qiya yo'l bo'yicha, o'ng pastki pardaga, o'ng yelka bilan bita chiziqda "oyoq uchida tepma" harakat bilan chiqadilar. Har bir harakatning "bir" sanog'iga o'ng oyoq uchi bilan o'ng tomonga qadam tashlaydi. "Ikki" sanog'iga chap oyoq o'ng oyoq oldiga rasman holatga jiladi. Bu vaqtda chap quloq yonida panjalar birlashgan holda qarsak uriladi, so'ng barmoqlar bukiyadi. Bosh o'ngga qaraydi.

15-18-
taktlar

Oyoq holati o'zgarmaydi. Qiya chiziqan toq sanog'dagi qizlar oldinga, juft sanog'dagi qizlar orqaga ochildib, katta davraga keladilar. Davra o'rtasiga qarab turadilar: toq sonidagi qizlar yarin aylanib, o'ng tomonga, orqa tomonga, davraning chap tomoniga kelishadi. (Qiya chiziqda nisbatan) shu paytning o'zida juft sonli qizlar aylanmasdan, orqa bilan orqaga — davraning o'ng tomoniga ketadilar. Gavda, bosh keskin oldinga egiladi. Sekin-asta tiklanadi. Shu paytda qo'llar 6-holatga boradi, asta-sekin yuz ro'parasida 2-holatga ko'tariladi, barmoqlar qisillatiladi, chap qo'lining katta barmog'i bilan o'ng qo'lining ko'rsatgich barmog'i jipslashiriladi. O'ng qo'lining katta barmog'i chap qo'lining katta barmog'iga jipslashiriladi, qolgan barmoqlar bir-biriga tegib turadi. Qisillatish o'ng qo'lining ko'rsatgich barmog'i bilan bajariladi. U kuch bilan sirpanitilib, chap ko'rsatgich barmog'iga tushiriladi.

19-22-
taktlar

"Uch tepma" oyoq harakati bilan joyda o'ngga to'liq aylaniladi. Qo'llar chap quloq oldida, kaftlar birlashgan, barmoqlar yuqoriga qaragan, tirsaklar ko'tarilgan.

23-26-
taktlar

Oyoq o'zgarmaydi. Ijrochilar chap pastki burchakdan o'ng yuqori burchak tomonga davrani buzib, qiya yo'nalishga kelishadi. Toq sonli ijrochilar davradan burilib, qiya yo'nalishning bo'lagini hosil qilishadi. (Sahnaning o'rtasidan chap pastki burchakka) juft sonli qizlar davradan burilib, qiya yo'nalishning bo'lagini hosil qilishadi (sahna o'rtasidan o'ng yuqori burchakka). Hamma ijrochilar chap pastki burchakka chap yelkalari bilan qoladilar. Bosh va gavda avval keskin pastga egilib, sekina to'g'rilanadi. Qo'llar 6-holatdan 2-holatga sekina ko'tariladi, barmoqlar qisillatiladi.

27-30-
taktlar

Harakat joyida bajariladi. Har bir taktning "bir" sanog'iga o'ng oyoqlarning uchlari chapdan oldinga qarab yengil yerga uriladi, "ikki" sanog'iga o'ngdan to'g'riga oyoq uriladi. Oxirgi takt — finish. Har "bir" sanog'iga barmoqlar qisillatiladi. 2-holatda bosh, gavda bir o'ngga egilib, o'ng oyogini kuzatadi va oxirgi taktida to'g'rilanadi.

31-34-
taktlar

O'ngga chap oyoq to'liq jilgan holda to'liq aylaniladi. Shu payt o'ng oyoq har bir sanog'ga uchi bilan chap oyoq orqasiga 6-holatda urib turadi. Qo'l tirsaklari ko'tarilgan, kaftlari birlashgan. Chap yelka oldinda, barmoqlar yuqoriga qaragan. Bosh o'ngga qaragan.

2-qism. Xalq cholg'u asboblari dastasi jo'r bo'lad.

№3 musiqa, musiqa o'Ichovi 2/4. 56 takt

1-2-
taktlar

Turgan joyida oyoqlar 3-holatda, tizzalar bir oz bukiigan. O'ng oyoq har bir sanog'ga urib turadi. Qo'llar kaftlarini yonga qaratib, ro'parasidan pastga tushiradilar, barmoqlar bo'sh holatda. Gavda va bosh oldinga egiladi. Har bir taktning "bir" sanog'iga qo'llar bir oz chapga olib boriladi. Shu payt o'ng qo'l tirsakdan bukiilib, barmoqlar qisillatiladi. Chap qo'l to'g'ri turadi: "ikki" sanog'iga bir oz o'ngga olib boriladi, chap qo'l tirsakdan bukiilib, barmoqlar qisillatiladi. Qo'llar oxirgi sanog'ga chap tomonda 5-holatda qoladi.

3-takt

Oyoq 3-holatda, chap oyoqning uchi qo'yiladi. O'ng qo'l 2-holatdan 1-holatga kelib birga qo'yiladi.

4-takt

O'ng oyoq chap oyoqning orqasiga chalishitilib, oyoqlar uchlarida qo'yiladi. Qo'llar holati o'zgarmaydi.

5-10-taktilar

Qiya yo'nalishni buzmasdan qizlar burilib, tomoshabinga yuzi bilan qarab, to'g'ri chiziqqa kelishadi. Juft sonli yon bilan chapga, toq sonli yon bilan o'ngga jiladi. Hammalari oyoqlari bilan "to'liq tepma" harakatini (chap oyoq to'liq qo'yilgan holda jiladi, o'ng oyoq rasmiy holatda tepadi) bajaradi. Qo'llar har ikki taktida yuz ro'parasida "gulbargi" dan 1-holatga ochiladi. Gavda va bosh oldinga egiladi, so'ng "qiyg'ir bo'yin" bilan to'g'rilanadi.

11-14-taktilar

To'g'ri chiziqdan 2 ta chiziqqa ajraladi. Toq sonli qizlar chapga, juft sonli o'ng tomonga chorak aylanadi. Oyoqlar 4-holatda. Chap oyoq uchida. Chapga aylanganlarning oyoqlari aksincha bo'ladi. Gavda oyoqqa sal egiladi. Bosh tomoshabinga qaraydi. Shu payt qo'llar kichik aylana shaklida o'zlarining ro'parasida ichkariga aylanadi. Kaftlar pasida, barmoqlar oldinga qaraydi.

15-taktilar bir

Hamma ijrochi joyida to'liq aylanadi. O'ng tomondagilar o'ngga o'ng oyoq uchi bilan, chap tomondagilar chapga chap oyoq uchi bilan. Qo'llar 3-holatga keladi.

ikki

O'ngdagilar o'ng tizzaga, chapdagilar chap tizzaga o'tiradilar. Qo'llar 3-holatda qoladi.

16-takt

"Labi g'uncha" harakati bajariladi. O'ng qo'l jimjilg'i lab tagiga keladi.

17-takt

Tizzada o'tirib "qiyg'ir bo'yin" harakatini, qo'llar "labi g'uncha" harakatini bajaradi.

18-takt

"Qiyg'ir bo'yin" bilan o'rinaridan turadilar, tomoshabinga qarab qoladilar. Oyoqlar rasmiy holatda. Qo'llar o'zgarmaydi.

19-20-taktilar

Hamma ijrochilar to'liq aylanadilar: 2 tadan 4 gator chiziqqa ochiladilar. Oxirida chap tizzaga o'tiradilar. Toq sonli ijrochilar tomoshabinga yuzlari bilan qaragan holatda o'ngga jiladi. O'ng oyoq bilan o'ngga aylanadilar va chap tizzaga o'tiradilar. Ular o'ngga o'ngga aylanish bilan juft sonli keladi. Chap tizzaga o'tiradilar. Chap tomondagi ijrochilar xuddi shunday holatda keladilar, faqat aksincha ijro etadilar. 19-taktida qo'llar o'zgarmaydi, 3-holatda turadi. 20-taktida "labi g'uncha" harakati bajariladi, tirsaklar bukilgan, kaft ro'parasida ichkariga qaraydi. Barmoqlar yonda, bir qo'l ikkinchi qo'l atrofida aylanadi, barmoq bitta tashqariga aylantirilib, o'ng qo'l tirsagiga olib kelinadi.

21-takt

"Qiyg'ir bo'yin" harakati bajariladi. Qo'l "labi g'uncha" harakatida.

22-takt

Qizlar turishadi. Oyoqlar rasmiy holatda, qo'l "labi g'uncha" da.

23-26-taktilar

Qizlar shaxmat holatda turishadi: 1-3-chiziqdagilar o'ngga, 2-4-chiziqdagilar chapga jilishadi. O'ngga jilgan qizlar takting har "bir" sanog'iga o'ng oyoq tovonini bir oz o'ngga — to'g'riga jildirishadi. Chap oyoqning orqasiga suriladi. "Ikki" sanog'iga o'ng oyoq uchi bilan orqaga olib boriladi. Chap oyoq "bir" sanog'idagi harakatini qaytaradi. Chapga harakat qilganlar ham xuddi shu harakatni ijro etishadi, faqat aksincha. 23-taktida qizlarning hammasi qo'llarini 4-holatga olib boradilar (chap qo'l tepada). O'ng barmoqlar bir sanoqqa qisillaydi, chap qo'l barmoqlari bilan "tashqariga-ichkariga" harakat qiladi. Oxirgi sanoqqa qo'llar 5-holatga keladi. Chap tomonda.

27-takt bir, ikki

Hamma o'ng oyoqning uchida aylanadi, chap oyoq yerdan uziladi. O'ng qo'l keskin 2-holatga olib chiqiladi (3-holat).

28-takt

Hamma chap tizzaga o'tiradi. Qo'llar holatini o'zgartiradi.

31-34-taktilar

"Labi g'uncha" harakati bajariladi. Ijrochilar o'rinaridan turadilar. Oyoq rasmiy holatda. Qo'llar o'zgarmaydi.

35-takt

1-3-chiziqdagi qizlar bir oz chapga ketadilar. Takting har "bir" sanog'iga chap oyoq tovonini biroz chap va oldinga chiqaradilar. "Ikki" ga chap oyoq yarmi bilan orqaga olib boriladi. O'ng oyoq "bir" sanog'idagi harakatni qaytaradi. 2-4-chiziqdagilar o'ngga bir oz ketadilar. Xuddi chapdagilardak, faqat aksincha. 31-taktida qo'llar 4-holatga keladi (chap qo'l tepada). So'ng barmoqlar qisillatiladi. Chap qo'l barmoqlari "ichkariga-tashqariga" aylantiriladi. Barmoqlar tepaga qaraydi. Oxirgi sanoqda 5-holatda chap tomonda qoladilar.

36-40-taktilar

Hamma ijrochilar o'ngga o'ng oyoq uchi bilan aylanadilar, chap oyoq tizzadan bukiladi, yerdan ko'tariladi. O'ng qo'l keskin 2-holatga, so'ng 3-holatga keladi.

41-takt

Ijrochilar chap tizzaga o'tiradilar, qo'l o'zgarmaydi.

42-takt

"Labi g'uncha" bajariladi.

43-takt

"Qiyg'ir bo'yin", qo'l "labi g'uncha" da.

44-takt

Ijrochilar o'rinaridan turadilar, oyoq rasmiy holatda, qo'l "labi g'uncha" da.

45-takt

Ijrochilar o'rinaridan turadilar, oyoq rasmiy holatda, qo'l "labi g'uncha" da.

46-takt

Ijrochilar o'rinaridan turadilar, oyoq rasmiy holatda, qo'l "labi g'uncha" da.

47-takt

Ijrochilar o'rinaridan turadilar, oyoq rasmiy holatda, qo'l "labi g'uncha" da.

39-44- taktlar

1-qatorning har bir ijrochisi 2-qatordagi joyida turgan qizning atrofiga o'ngga, soat miliga qarshi tomonga aylanib joyiga keladi. 3-qatorning har bir qizi soat mili bo'yicha chapga aylanib, 4-qatordagi qizning atrofiga aylanib, joyiga keladi. Oyoq harakati "to'liq tepma", o'ng oyoq oldinda (har bir sanogga o'ng oyoq bilan to'liq qadam, chap oyoq o'ng oyoq oldiga jiladi). Qo'llar 1-holatda. Oxirgi taktga orqaga keladi. Shu 6-taktida 2-qatordagilar joyida to'liq aylanadilar, qo'l "mayin sabo" — 2-holatda, 4-qatordagilar ham xuddi harakat bajarishadi, faqat teskari tomonga.

45-48- taktlar

2-qatordagilarning har biri 1-qatordagi qizda soat mili bo'yicha aylanib, joyiga keladi, 4-qatordagi qizlar soat miliga teskari holatda 3-qatordagilar atrofidan aylanib, joyiga kelishadi. Chapga aylanish bilan tugaydi. Qo'l 1-holatda, oyoq hamмага "to'liq tepma", o'ng oyoq oldinda, oxirgi sanogda qo'l orqaga keladi.

49-takt

Hamma qizlar o'ngga o'ng oyoq uchida aylanishadi. Chap oyoq yerdan uzilib, tizzalar bukiadi. Qo'llar keskin 3-holatga olib boriladi (o'ng tepada) tomoshabinga yuzi bilan qoladilar. Oyoq rasmiy holatda.

50-takt

Hamma ijrochilar chapga chorakka aylanib, qo'llar 1-holatga kelib "yelka qoqish" harakatini bajaradilar. o'ng yelka bilan. Takt oxirida o'ngga chorak aylanib, hamma tomoshabin tomonga yuzi bilan qarab qoladi.

51-54- taktlar

4-qatordagilarning hammasi orqalari bilan orqaga ketadilar, "nuqtali yurish" bilan (51-taktida "bir" sanog'iga oyoq uchi orqaga qo'yiladi. "Ikki" sanog'iga o'ng oyoq bir oz orqaga tovon bilan qo'yiladi. Gavda bir oz o'ngga buriladi), keyingi taktga chap oyoqdan qaytariladi. Qo'l 1-holatda.

55-56- taktlar

Hamma qizlar oldinga oddiy qadam bilan keladilar. Qo'llar 2-holat — "gulbargi" orqali 1-holatga ochiladi. Chap qo'l boshga keladi. Oyoqlar 3-holatga keladi, chap oyoq uchida turadi.

3-qism. Doira jo'rligida

№4 musiqqa, musiqqa o'Ichami 2/4. 56 takt.

1-takt bir, ikki

Harakat joyida bajariladi. O'ng oyoq 6-holatga uchida keladi, tizza bukiadi.

O'ng oyoq 3-holatga qaytariladi, tizzalar tortiladi. ("moki" harakati). Shu paytda o'ng qo'l qirsilatilib, chap ko'ksiga keladi va 6-holatdan yuqoriga ochiladi, o'ng tomonga. Gavda bir oz o'ngga buriladi, bosh qo'lni kuzatadi.

2-4-taktlar

5-takt bir,

ikki

6-takt

7-10-taktlar 11-12- taktlar

13-16- taktlar

1-takt 2 marta qaytariladi.

Hamma ijrochi o'ngga "chalishma aylanish" oyoq harakatini bajaradi. O'ng oyoq panjalari oyoqlarning orqasiga chalishitilib qo'yiladi. Qo'llar 1-holatga ochiladi, ikkala oyoq uchida yarim aylanish, (tomoshabinga orqa bilan) chap oyoq tovonni yerdan ko'tarilib, tushiriladi.

"Bir" sanog'idagi harakatni qaytaradi (tomoshabinga yuz bilan). Qo'llar 1-holatda qoladi. Kaft yuqorida.

5-taktini qaytarish.

Joyida 1-4-taktlar ("moki" harakati)ni qaytarish.

5-6-taktlarni qaytarish, qo'l 1-holatda.

Hamma ijrochilar 4 ta burchakda qiya yo'lda borishadi. 1-2-qatordagilar chapga chorakka aylanib, so'ng pasiki burchakka orqa bilan boradilar. Sahna o'rtasiga yuz bilan. 3-4-qatordagilar xuddi shuning aksini bajarishadi. Chap pasiki burchakka o'ngga chorak aylanib boradilar. 1-2-sonli raqqosalar 3-4-qatordan chapga chorak aylanib, orqaga o'ng yuqori burchakka orqa bilan yuradilar, ular ham sahna o'rtasiga yuz bilan turishadi. 3-4-sonli qizlar ham xuddi shuning aksini bajaradilar: chap yuqori burchakka sahna o'rtasiga yuz bilan qiya yo'lda turishadi. Chapga chorakka aylaniladi. Hamma uchun "oyoq uchida tepma" harakati — taktning har bir sanog'iga urg'u bilan o'ng oyoq uchi bilan orqaga, o'ngga qadam tashlanadi, chap oyoq o'ng oyoq oldiga jiladi. Qo'l harakati: "bir" sanog'iga 13-takt 6-holatda qarsak, chapdan so'ng o'ng qo'l tepaga, chap qo'l pastga keladi: "Ikki" sanog'iga o'ng qo'l tashqariga aylanib, 2-holatga keladi, chap qo'l rasmiy holatda.

Oyoq holati o'zgarmaydi. O'ng pasiki burchakdagi va chap yuqori burchakdagi qizlar bir-biriga qarab yurishadi. Qo'llar 2-holatda qirsilatiladi. 18-takt oxirida (yaqinlash-ganda) ikkala qatordagilar kichik sakrash va shu vaqtda yarim aylanish bilan joylarini o'zgartirishadi. O'ng tomonga aylaniladi, o'ng yuqori burchakdagilar esa 17-taktida joyida yarim aylanish bilan sahna o'rtasiga orqa bilan qoladilar. Oyoqlar 3-holatda, o'ng oyoq uchida. Qo'llar rasmiy holatda tushiriladi. Kaft tashqariga qaraydi. 18-taktga qo'llar mayin harakatlari bilan yuz oldidan bir oz chapga olib o'tiladi. Shu paytda o'ng qo'l tirsagi bukiilib, barmoqlar qir-silatiladi. Xuddi shunday holatda o'ngga olib boriladi. Takt oxirida chap qo'l kafti boshga boradi. O'ng qo'l 1-holatga ochiladi.

19-20- taktlar

Qizlar o'rin almashganlaridan so'ng qiya yo'l bilan burchak tomonga orqa bilan borishda davom etadilar. Qo'l va oyoq holati o'zgarmaydi. Shu paytda chap pastki burchak va o'ng yuqori burchakdagi joylarda "moki" harakatini bajarishadi: har bir taktning "bir" sanog'iga o'ng oyoq uchi 6-holatga qo'yiladi, tizza bukhladi, "ikki" sanog'ida o'ng oyoq 3-holatga oyoq uchida qaytadi, tizzalar tortiladi. O'ng qo'l "bir" sanog'iga chap ko'ksiga yaqinlashadi, barmoqlar qirsillaydi. "Ikki" sanog'iga 6-holatdan balandga ochiladi. Oxirgi sanogga yarim aylanish tezlikda bajariladi. O'ngga o'ng oyoq bilan tortiladi. Sahna o'rtasiga yuz bilan qarab qolinadi.

21-24- taktlar

17-20-taktlarni boshqa tarafdagi bajarishadi: Chap pastki burchak va o'ng yuqori burchakdagi joylarini almashtiradilar.

25-32- taktlar

17-24-taktlar qaytariladi. Oxirgi takt raqqosalar sahna markaziga qarab qoladilar. Oyoqlar 6-holatda, chap oyoq uchida, qo'l 1-holatda.

33-takt

Hamma raqqosa charx aylanish bilan katta davra hosil qiladi. Soat miliga qarshi yuradi. Yuz davraga qaraydi. Qo'l, oyoq, "soxta ufori" harakati.

bir

O'ng oyoq tovonni bilan qadam tashlab oyoq to'pig'icha qo'yiladi. Tizzalar bukhladi, chap qo'l belni oldidan quchadi, o'ng qo'l 2-holatdan oldinga tushib, chap tirsak ustiga tashlanadi. Shu vaqtda gavda bir oz o'ngga egiladi. Bosh qo'lni kuzatadi.

ikki

O'ng oyoq kichik qadam bilan oldinga to'liq qo'yiladi. O'ng tizza tortilib, chap oyoq uchida qoladi. Tizzalar bukhladi. O'ng qo'l 1-holatga ochiladi, gavda to'g'ri qolib, bosh qo'l harakatini kuzatadi.

34-takt

"Soxta ufori" yurish chap oyoq va chap qo'l bilan qaytariladi. O'ng oyoq uchi bilan o'ngga to'liq aylaniladi. Chap qo'l belni oldindan quchadi. O'ng ko'l keskin 2-holatga ko'tariladi.

36-37- taktlar

Davrani davom ettirib, 2 ta "charx" o'ng oyoqdan boshlab ijro etiladi. Qo'l birinchi holatda.

38-52- taktlar

33-37-taktlar 3 marta qaytariladi. ("soxta ufori" – 2 takt; 1 ta aylanish – 1 takt; 2 ta "charx" – 2 takt).

53-55- taktlar

33-35-taktlar qaytariladi. ("soxta ufori" – 2 takt, aylanish – 1 takt)

56-takt

Hamma qizlar chappa yarim aylanib, sahna o'rtasiga yengil chopib kelishadi. Qo'llar 6-holatga keladi. Barmoqlar qirsillanadi, barmoqlar yig'ilgan holda. Gavda, bosh oldinga egiladi.

4-qism. Xalq cholg'u asboblari dastasi jo'r bo'yada

№3 musiq, musiq o'lov 2/4. 52 takt.

1-4-taktlar

Davrani kengaytirib, orqaga yurishadi. "Oyoq uchida tepma" harakati bilan (takt har bir sanog'iga o'ng oyoq uchida orqaga qadam tashlanadi, chap oyoq o'ng oyoq oddiga jiladi). Qo'llar qirsillatib boriladi. Pastdan 2-holatga ko'tariladi. Gavda, bosh to'g'ri qoladi.

5-8-taktlar

Joyida. 8 ta qiz o'ng tomonga chorak aylanadi. 8 ta qiz chap tomonga aylanadi. Oyoq "yarim qaychi", har bir sanogga qo'l qirsillanadi.

9-16- taktlar

"To'liq tepma" oyoq harakati bilan qiya yo'lga o'tiladi. O'ng tomondagi qizlar soat mili bo'yicha orqa sahna o'rtasidan o'ngga qayriladi. Qiya yo'lga kelishadi. O'ng pastki burchakka. Chap tomondagi soat miliga qarshi yurishadi, orqa sahna o'rtasidan chappa, qiya yo'lga chap pastki burchak tomonga yurishadi. 2-holatda qo'llar "b" ko'rinishda qirsillatib boriladi.

17-takt

2 ta qiya yo'nalishdan 4 ta qiya yo'nalish hosil qilindi. Toq sonlilar – o'ng qiya yo'nalishdagi to'liq o'ngga aylanib, o'ng oyoq bilan 1 qadam nariga jilishadi va o'tirishadi. Shu vaqtda toq sonlilar o'ng oyoq bilan o'ngga aylanishadi. Chap qiya yo'nalishdagi xuddi shu harakatni bajarishadi, faqat chap tomonga 1-holatda, 18-takt – o'ng tomondagi ichkari qiya yo'nalishdagi chap tizzaga o'tirishadi. Chetdagi qiya yo'nalishdagi joyida turishadi, oyoq 3-holatda, chap oyoq uchida. Hamma qarama-qarshi tomonga qarsak chaladi. 6-holatda chapqadan so'ng qo'llar 3-holatga ochiladi. O'ng qo'l tepada. Chap tomondagi ichki qiya yo'nalishi ijrochilari o'ng tizzaga o'tirishadi. Oyoq 3-holatda, o'ng oyoq uchida. Chap shunday turishda chalinadi, chap qo'l kafi o'ng qo'l kaffiga, so'ng o'ng qo'l kafi chap qo'l kaffiga uriladi. 3-holatga ochiladi. Chap qo'l tepada.

**19-22-
taktlar**

Tashqaridagi qizlar oyoq uchlari bilan joyida har bir sanoqqa urib turadilar, bu "yelka qoqish" harakati bilan birga bajariladi (bitta yelka bilan). O'ng tomondagi chap yelka bilan, chap tomondagi o'ng yelka bilan. Ichkaridagi qizlar 1-qatorda turganlar bilan birga "yelka qoqish" harakatini bajarishadi. So'ng o'rinlaridan turib, o'zlarining avvalgi holatiga qaytadilar.

23-takt

O'ng tomondagi ikki qiya yo'nalishdagi qizlar joylarida 1 ta to'liq aylanadilar. O'ng oyoq bilan o'ng tomonga, chap oyoq bilan chap tomonga.

24-takt

O'ng tomondagi ichkari qiya yo'nalishdagi qizlar chap tizzalariga o'tirishadi, tashqaridagi joylarida turishadi, oyoqlari 3-holatda, chap oyoq uchi bilan qo'yilgan. Hamma bir vaqtda 2 ta qarama-qarshi chapak chaladi, 6-holatda. Chapqadan qo'llar 3-holatga ochiladi. O'ng qo'l tepada. Chap ichki qiya yo'nalishdagi o'ng tizzaga o'tirishadi. Tashqaridagi joyida turadi. Oyoqlar 3-holatda, o'ng oyoq uchida.

**25-28-
taktlar**

Tashqari qiya yo'nalishdagi qizlar joyida har bir sanoqqa oyoq urib turadi. Oyoq uchi harakati "yelka qoqish" harakati bilan birga bajariladi, bir yelka bilan (o'ng tomondagi chap, chap tomondagi o'ng yelka bilan) ichkaridagi 1 takt "yelka qoqish" harakatini bajaradi, so'ng turadilar. Oyoqlar rasmiy holatga keladi. Oxirgi sanoqqa hamma jirochlar chorak aylanish qiladi: o'ngdagilar chapga, chapdagilar o'ngga.

29-takt

Tashqi qiya yo'idagilar 1 qadam oldinga suriladi. "Oyoq uchida tepma" harakati bilan 4 ta qiya yo'idan 2 ta qiya yo'l hosil qiladilar. Shu paytda qarama-qarshi qarsak 6-holatda bajarilib, 3-holatga ochiladi. O'ng oyoq "tepma".

**30-34-
taktlar**

Oyoq holati o'zgarmaydi. Qo'l 3-holatda qoladi. Raqosalar 2 ta qiya yo'idan bitta qiya yo'l hosil qiladilar, o'ng pastki burchakdan chap yuqori burchakka: o'ng tomondagi qiya yo'l ichkarisini hosil qiladi, chapdagilar tashqarisini hosil qiladi. Oxirgi sanoqqa oyoq 3-holatni egallaydi. O'ng oyoq uchi bilan qo'yiladi, chap qo'l kafi bosh orgasiga boradi. O'ng qo'l 1-holandan yuqoriga olib o'tiladi.

**35-36-
taktlar**

Joyida. "Moki" oyoq harakati o'ng oyoq bilan bajariladi. Shu payt har bir raqosa har taktning "bir" sanog'iga qo'llarni qirsillatib, chap ko'ksiga yaqinlashiradi. "Ikki" sanog'iga barmoqlarini qirsillatib, joyiga keltiriladi.

37-takt

Hamma qizlar oyoq bilan "moki" harakatini bajarishadi. Shu paytda taktning har "bir" sanog'iga barmoqlar qirsillatib, chap ko'krakka yaqinlashadi. "Ikki" sanog'ida joyiga qaytadi.







40-takt

O'ng oyoq bilan o'ngga to'liq aylanadilar. Qo'llar 3-holatda, o'ng qo'l tepada.








**41-52-
taktlar**

Chap yelka bilan sahnaning chap tomondagi oxirgi pardasi orgasiga yon bilan ketadilar. Qiya yo'nalishida. "Oyoq uchida tepma" harakati (xuddi chiqishdek) chap oyoqni urish bilan. Qo'llar gulog oldida chapak holatida bo'ladi. Chapqadan so'ng barmoqlar bukiyadi. Bosh o'ngga qaraydi.




















“BAYOT”

	
1-QISM. 1-14 TAKTLAR 	1-QISM. 15-22 TAKTLAR 
1-QISM. 23-30 TAKTLAR 	1-QISM. 31-34 T., 2-QISM. 1-4 T. 
2-QISM. 5-10 TAKTLAR 	2-QISM. 11-17 TAKTLAR 














“BAYOT”

	
2-QISM. 18-TAKT 	2-QISM. 19-20 TAKTLAR 
2-QISM. 21-26 TAKTLAR 	2-QISM. 27-34 TAKTLAR 
2-QISM. 35-38 TAKTLAR 	2-QISM. 39-44 TAKTLAR 


“BAYOT”

I  II  III  IV 	I  II  III  IV 
2-QISM. 45-48 TAKTLAR	2-QISM. 49-56 TAKTLAR
I  II  III  IV 	I  II  III  IV 
3-QISM. 1-12 TAKTLAR	3-QISM. 13-16 TAKTLAR
I  II  III  IV 	I  II  III  IV
3-QISM. 17-20 TAKTLAR	3-QISM. 21-24 TAKTLAR

“BAYOT”

I  II  III  IV 	I  II  III  IV 
3-QISM. 25-32 TAKTLAR	3-QISM. 33-55 TAKTLAR
I  II  III  IV 	I  II  III  IV 
3-QISM. 56 TAKT	4-QISM. 1-8 TAKTLAR
I  II  III  IV 	I  II  III IV
4-QISM. 9-16 TAKTLAR	4-QISM. 17-22 TAKTLAR

“BAYOT”

	
+ QISM. 23-28 TAKTLAR	
	
+ QISM. 30-52 TAKTLAR	

+ QISM. 29 TAKT

BAYOT

$M.N. = 120-126$


O'zbek xalq kuyi



M.M. ♩ = 162-170

Doyra

M.M. ♩ = 116-120



30503

MUNDARIJA

Kirish	3
"O'zbek raqs san'ati tarixi va raqs sahnalashtirish sirlari" fanining mazmuni va mohiyati	5
Milliy raqs san'ati tarixi	6
Xalq raqslari	7
O'zbek raqs liboslari tarixi	10
Etkaklar kiyimi	11
Ayollar kiyimi	15
Taqinchoqlar va pardoz turlari	18
O'zbek raqs san'ati asoschilari	21
Usta Olim Komilov	21
Tamarxonim	23
Mukarrama Turg'unboyeva	25
Isoxor Ogilov	27
Margarita Ogilova	29
Qunduz Mirkarimova	31
Galiya Izmaylova	32
Bernora Qoriyeva	33
O'zbek milliy raqs dastalari	34
"Bahor" raqs dastasi	35
"Lazgi" davlat ashula va raqs ansambli	36
"Tanovar" o'zbek raqs teatri	37
Mustaqillik davrida o'zbek xoreografiya san'ati rivojiga hissa qo'shgan baletmeysterlar	39
Akbar Mo'minov	41
Yulduz Ismatova	42
Ma'mura Ergasheva	43
Shokir Ahmedov	45
Erkinoy Sayitova	46
Raqs sahnalashtirish	47
Xoreografiya – san'atning bir turi	47
Baletmeyster	48
Baletmeyster-yaratuvchi, balet muallifi hisoblanadi	49
Baletmeyster-sahnalashtiruvchi	49
Raqs jamoasi rahbarining ijrochilar bilan ishlash uslubi	51
Raqs kompozitsiyasi	52
Musiqa haqida	54
Raqs matni	54
Raqs tasviri	55
Sahna rejasi	58
Rakurs haqida	59

Mimika (yuz ifodasi) haqida	60
Variatsiya – yakka raqs	60
Duet	60
Uchlik (trio)	61
Kvartet	61
Ommaviy raqs	61
Balemeyster – jamoaning ijodiy tashkilotchisidir	61
Balet artisti	62
Raqs texnikasi	63
Balet spektaklida obraz	64
Bal raqslarini sahnalashtirish	65
O'zbek milliy raqslaridan «Bayot» raqsini sahnalashtirish	66

QAYD UCHUN

85.32(5Y)
K 16

Kazakbayeva Zuhra.

O'zbek raqs san'ati tarixi va raqs sahnalashtirish sirlari: Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma/ Zuhra Kazakbayeva, Diltuza Sayfullayeva; O'zR o'ily va o'ra maxsus ta'lim vazirligi, O'ra maxsus kasb-hunar ta'lim markazi. – T.: "Voriz-Nashriyoti" MChJ, Toshkent – 2006. – 88 bet.

I. Sayfullayeva Diltuza

BBK 85.32 (5Y) a722

**DILFUZA SAYFULLAYEVA
ZUHRA KAZAKBAYEVA**

O'ZBEK RAQS SAN'ATI TARIXI VA RAQS SAHNALASHTIRISH SIRLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv-qo'llanma

*"Voriz-Nashriyoti" MChJ
Toshkent – 2006*

Muharrir	H.Yusupova
Musabbihi	O.Rahimov
Kompyuterda sahifalovchi	I.Zohidova

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 26.10.2006. Bichimi 60x84^{1/16}.
Kegli 11 shponi. Tayms garn. Ofset bosma usulida bosildi. Hajmi 5,5 b.t.
1000 nusxada bosildi. Buyurtma № 163

"Voriz-Nashriyoti" MChJ, Toshkent – 2006

*"Sano-Standard" MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent. Shiroq ko'chasi, 100.*